

ISSUE 7
JULY 2024



"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH"

- Applied sciences
- Chemical sciences
- Biological sciences
- Geography sciences
- Physical sciences
- Medical sciences
- Ecological sciences
- Pedagogical sciences
- Psychological sciences
- Mathematical sciences



**Research Science and
Innovation House**

www.universalpublishings.com

**«CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH» ilmiy konferensiyasi**

31.07.2024-yil.

Ushbu to‘plamda **«CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED
SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH»** ilmiy konferensiyasi
2024 yil 1-soni 7-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo,**
Open Aire, Google Scholar xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya
etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman
tan olinadi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar,
doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy
xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Eslatma!
Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar,
hisobotlar, ma‘lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar
shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul kotib: Sobirov Javoxir Xayrulla o’g’li Urganch davlat Universiteti talabasi

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o’g’li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

1. **Rahimov Rahimboy Atajanovich,** Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi.
2. **Isayev Sabirjan Xusanbayevich,** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrası, qishloq xo’jaligi fanlari doktori, professor.
3. **Matyakubov Baxtiyar Shamratovich,** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrası professori, qishloq xo’jaligi fanlari doktori, professor.
4. **Norboyeva Umida Toshtemirovna,** Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrası professori, DSc (Biologiya fanlari), professor.
5. **Matsaidova Sayyora Xudayberganovna,** Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo’jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
6. **Xamroyev Muxtor Ozodovich,** Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
7. **Matchanov Otabek Jumanazarovich** Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrası Dotsenti. Yo’nalish - Tabiiy Geografiya.
8. **Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna,** Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

9. **Djumayev Mamanazar Irgashevich** Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası , professori p.f.n.
10. **Qandov Bahodir Mirzaevich** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası PhD, dotsenti.
11. **Samandarov Ergash Iskandarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dosent.
12. **Egamov Baxtiyor Nurmetovich**, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
13. **Rajabov Alibek Xushnudbekovich**, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrası, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
14. **Babajanova Sanabar Yuldashbayevna**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası, qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.
15. **Masharipov Adamboy Atanazarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası dotsenti.
16. **Ismoilova Himoyat Matnazarovna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
17. **Ismayilova Intizar**, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
18. **Razakova Rayxan Saylaubekovna** Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
19. **Ataullayev Zokir Maxsudovich**, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrası, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrası dotsenti.
20. **Raximova Xolisxon Maksudovna**, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrası, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) , dotsent.

KORREKTSION PEDAGOGIKANI PREDMETI, VAZIFALARI VA MOHIYATI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo'nalishi talabasi

Toshmatova Gulyora

gulyoratoshmatova24@gmail.com

Andijon Davlat Pedagogika Instituti “Maktabgacha ta'lim pedagogika va
psixologiyasi” yo'nalishi talabasi

Ma'rufjonova Xusnigul

husnigulmarufjonova5@gmail.com

Annotatsiya: Biz bu maqolada korreksion pedagogika, ya'ni defektologiya haqida quyidagi bo'limlar asosida o'rganib chiqamiz:

- korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari
- korreksion pedagogikaning kategoriyalari
- korreksion pedagogikaning mohiyati va mazmuni.

Kalit so'zlar: defektologiya, korreksiya, anomaliya, kompensatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya.

Аннотация: В данной диссертации мы будем изучать коррекционную педагогику, то есть дефектологию, на основе следующих разделов:

- предмет, задачи коррекционной педагогики
- категории коррекционной педагогики
- сущность и содержание коррекционной педагогики.

Ключёвые слова: — дефектология, — коррекция, — аномалия, — компенсация, — социальная реабилитация.

Abstract: We will study in this thesis about correctional pedagogy, that is, defectology, on the basis of the following sections:

- subject, tasks of Correctional pedagogy
- categories of Correctional pedagogy
- the essence and content of Correctional pedagogy.

Keywords: defectology, correction, anomaly, compensation, social rehabilitation.

Kirish

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati.

Rivojlanishida turli nuqson (kamchiliklar) bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya – yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logot – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash yoki o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Pedagogik lug'atda “korrektsiya” tushunchasi (yunoncha “correktio” – tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tuzilishi ta'kidlab o'tiladi. Ana shu lug'atda “korreksion pedagogika” ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan sog'ligi imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsni rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat. Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim. Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari.

Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- differentsatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini aniqlash;
- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish va kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari.

Korreksion pedagogika quyidagi kategoriyalarga ega:

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega. Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa, uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa, aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy, hayot shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi. Anomal bolalarni tarbiyalash – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

tarbiyalash oila va ta'lim muassasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatni shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

Korreksiya (yunoncha – tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarda sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baxolashva boshqa malakalarni tarbiyalaydi. Kamchiliklarni tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (yunoncha “compensation” – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya (yunoncha “rehabilitas” – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy hududda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy

vazifa hisoblanadi. Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rni to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usanova O.N. Psixik rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar – M.Pedagogika, 1995-yil
2. Sayidahmedov Y.N. Yangi pedagogic texnologiyalar – T. Moliya. 2003-yil
3. Rahmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari – T. 1990-yil
4. O'katmova U. (2020-yil) Oilaviy zo'rvonlikning kelib chiqish sabalari. Журнал педагогики и психологии в современном образовании
5. Maxamatova F. (2020-yil) Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda ota-ona ibrat namunasi. Arxiv
6. Rahmatova F. (2021-yil) O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi.
7. Davurova G. (2020-yil) Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq qilinishi.
8. Rasulova D. (2020-yil) Yosh ota-onalarning pedagogic-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati.
9. Davurova G. (2020-yil) O'zlashtirishi qiyin bo'lgan kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasidagi muammolar va ularning yechimlari.
10. Qayumov A. (2020-yil) system-technological approach to spiritual and aesthesis education in the study of pedagogical disciplines.

**PSIXOLOGIYANING BOSHQA SOXALARGA TA’SIRI VA UNING
O’RGANISHDAGI KAMCHILIKLAR**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo’nalishi talabasi

Toshmatova Gulyora

gulyoratoshmatova24@gmail.com

Andijon Davlat Pedagogika Instituti “Maktabgacha ta’lim pedagogika va
psixologiyasi” yo’nalishi talabasi

Ma’rufjonova Xusnigul

husnigulmarufjonova5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan biri ekanligi, muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib kelishi hamda inson psixik dunyosiga ta'siri masalalari to'risida bir necha chet el psixolog olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borganliklari masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxslararo munosabat, intropsixologik kategoriya, insoniy munosabatlar, umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik, ijtimoiy-psixologik hodisa, ontogenez, ota-ona va farzand, perseptiv muloqot, san'at, shaxs.

Аннотация: В данной статье показано, что изучение межличностных отношений является одной из наиболее актуальных проблем науки психологии, что общение и взаимоотношения через него приводят к возникновению таких качеств, как общность, сходство, гармония между людьми, а также Что касается психического мира человека, то ряд зарубежных психологов проводили исследования по вопросам тайного.

Ключевые слова: Межличностные отношения, интропсихологическая категория, человеческие отношения, общность, сходство, гармония, социально-психологический феномен, онтогенез, родитель и ребенок, перцептивное общение, искусство, личность.

Abstract: In this article, the study of interpersonal relationships is one of the most pressing problems in the field of psychology. has been the subject of research by several foreign psychologists on the subject of secrecy.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Keywords: Interpersonal relationships, intrapsychological category, human relationships, generality, similarity, harmony, socio-psychological phenomenon, ontogeny, parent and child, perceptual communication, art, personality.

Psixologiyaning boshqa sohalarga ta'siri va uni o'rganishdagi kamchiliklar O'zbekistonda psixologiya fanini o'rganishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, psixologiyaning o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni va boshqa sohalarga ta'siri to'g'risida tibbiy psixolog Abdullajon Begmatov maqolasida psixologiya universitetini ochish to'g'risidagi prezident qarorining loyihasi 3 yanvarga qadar jamoatchilik muhokamasida bo'ldi. Psixologiyaga oid muammolarni hal qilish mamlakat taraqqiyoti uchun naqadar muhimligini shundan ham bilsa bo'ladiki, ularni yechish nafaqat ta'lim rivojiga, balki iqtisodiyotdan tortib sportgacha, tibbiyotdan tortib tadbirkorlikkacha bo'lgan sohalar taraqqiyoti tezlashishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Sobiq ittifoqda XX asrning 60-yillarigacha psixologiya faniga yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Psixologiya fanining ba'zi eng yangi yo'nalishlariga esa mensimay qaralar edi. Masalan, psixologiya fanining AQSH v Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida o'tgan asrning 30–40 yillarida shakllanib tez rivojlana boshlagan sohasi — «ijtimoiy psixologiya» yo'nalishi 60-yillargacha burjua fani sifatida inkor etib kelindi. 60-yillarda chop etilgan «Bolshaya sovetskaya ensiklopediya»da bu fanga quyidagicha ta'rif berilgan edi: «burjuacha soxta fan» (burjuaznaya ljenauka).

Psixologiya faniga bunday yondashuv kadrlar tayyorlashda ham o'z aksini topmay qolmadi. 80-yillarning o'rtalarigacha O'zbekistonda faqat Toshkent Davlat Universitetida (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) psixologiya yo'nalishiga har yili 25 nafar talaba qabul qilinardi. Bunday yondashuv oqibatida 1990 yil boshlarida sobiq ittifoqda hammasi bo'lib oliy ma'lumotli psixologlar soni 5000 kishidan kamroqni tashkil qilardi. Qiyoslash uchun: o'sha yil boshlarida oliy ma'lumotli psixologlar soni AQSHda 300 000dan ortiqroqni tashkil qilgan edi. Har ming kishiga hisoblaganda AQSHda psixologlar soni sobiq ittifoqqa qaraganda 60 baravar ko'p bo'lgan. Bundan 50 yil avval amerikaliklarning ko'pchiligi o'zlarining oilaviy psixologiga ega bo'lgan. Bizning mamlakatimizdagi poliklinikalarning ko'pchiligida hozirgi kunda ham tibbiy psixolog mavjud emas.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab sobiq ittifoqda psixologiyaga e'tibor biroz kuchaydi. Lekin ko'p vaqt yutqizilgan edi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Mustaqillikka erishilgandan keyin O‘zbekistonda psixologiya faniga ko‘proq e‘tibor berila boshlandi. Mamlakat oliy o‘quv yurtlaridagi psixologiya fakulteti va yo‘nalishlariga har yili 800ga yaqin talaba qabul qilinmoqda. Bu sobiq ittifoq davriga qaraganda 30 baravardan ortiqroqni tashkil qiladi. Lekin miqdoriy jihatga yetarli e‘tibor berilgan bo‘lsada, ta‘lim sifatiga yetarli e‘tibor berilmadi.

Ittifoq parchalangandan keyin Rossiya Federatsiyasi, Belarus singari mamlakatlarda psixologiya fanining mundarijasi jiddiy o‘zgartirildi va rivojlangan mamlakatlar darajasiga deyarli yetkazildi. O‘zbekistonda psixologiya fakultetlari soni va ularga qabul qilinayotgan talabalar soni ortgan bo‘lsa ham, fan mundarijasi sobiq ittifoq darajasida qolib ketdi.

Psixologiya fanlari mundarijasini belgilashda bizningcha, bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Mamlakatimiz psixologiya fanida inson psixikasi ikki qatlamdan, ong va ongostidan iborat ekanligi hisobga olinmayapti. Dunyoda ko‘zga ko‘ringan olimlarning fikriga ko‘ra, ong psixikaning 10 foizini, ongosti esa 90 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha psixolog olimlar psixikaning 10 foizini tashkil qiladigan ong bo‘yicha dissertatsiyalar himoya qilganlar. Psixologiya fakultetlarining o‘quv rejalariga ham faqat ong bilan bog‘liq mavzular kiritilgan. Chunki sobiq ittifoqning psixologiya fakultetlarida ham faqat ong bilan bog‘liq mavzular o‘qitilar edi.

Psixologiya fanlarining bir qator muhim yo‘nalishlarida juda kam ishlangan yoki umuman ishlanmagan. Jumladan, mamlakatimizda tibbiy psixologiya bo‘yicha ilmiy ish qilgan mutaxassislar barmoq bilan sanarli. Toshkent tibbiyot akademiyasida mazkur yo‘nalish bo‘yicha magistratura ochilgan. Lekin yaqin vaqtlargacha tibbiyot muassasalarida tibbiy psixolog shtati ko‘zda tutilmagani uchun magistraturani tugatganlar qayerga ishga kirishni bilmay sarson bo‘lishdi.

Tibbiyot oliygohlarining o‘quv rejasiga shaxs psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, psixodiagnostika, psixokorreksiya degan vrachlar uchun zarur bo‘lgan fanlar umuman kiritilmagan. Umumiy psixologiyani pedagogika fani bilan qo‘shib o‘qitish uchun faqat 56 soat vaqt ajratilgan. Bu esa umumiy psixologiya o‘qish olti yil davom medinstitutlarda 28 soat o‘qitilishini anglatadi. Ya‘ni o‘qish har kuni 6 soat davom etadi, deb hisoblasak, psixologiyaga olti yil davomida 5 kun ajratilishini bildiradi. To‘g‘ri, o‘quv rejalarida tibbiy psixologiya va psixiatriya, singari fanlarni o‘qitish ham ko‘zda tutilgan. Lekin bu fanlar me‘yoriy psixikani emas, psixikaning me‘yordan og‘ishlarini o‘qitishni ko‘zda tutadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Tibbiyot institutlarida insondagi me'yordan og'ishlarni o'rgatadigan fanlarni o'qitishdan avval me'yoriy holatlarni o'rganishga bag'ishlangan fanlar chuqur o'qitiladi. Masalan patologik anatomiya fanidan avval normal anatomiya, patologik fiziologiya fanidan avval normal fiziologiyani o'qitish singari. Shunisi ham borki, me'yordagi holatlar va me'yordan og'ishlarni o'rgatuvchi fanlarga ajratiladigan soatlar hajmi deyarli bir xil.

Tibbiyot oliygohlarining o'quv rejasiga shaxs psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, psixodiagnostika, psixokorreksiya degan vrachlar uchun zarur bo'lgan fanlar umuman kiritilmagan. Umumiy psixologiyani pedagogika fani bilan qo'shib o'qitish uchun faqat 56 soat vaqt ajratilgan. Bu esa umumiy psixologiya o'qish olti yil davom medinstitutlarda 28 soat o'qitilishini anglatadi. Ya'ni o'qish har kuni 6 soat davom etadi, deb hisoblasak, psixologiyaga olti yil davomida 5 kun ajratilishini bildiradi. To'g'ri, o'quv rejalarida tibbiy psixologiya va psixiatriya, singari fanlarni o'qitish ham ko'zda tutilgan. Lekin bu fanlar me'yoriy psixikani emas, psixikaning me'yordan og'ishlarini o'qitishni ko'zda tutadi. Tibbiyot institutlarida insondagi me'yordan og'ishlarni o'rgatadigan fanlarni o'qitishdan avval me'yoriy holatlarni o'rganishga bag'ishlangan fanlar chuqur o'qitiladi. Masalan patologik anatomiya fanidan avval normal anatomiya, patologik fiziologiya fanidan avval normal fiziologiyani o'qitish singari. Shunisi ham borki, me'yordagi holatlar va me'yordan og'ishlarni o'rgatuvchi fanlarga ajratiladigan soatlar hajmi deyarli bir xil.

Ruhiyatni o'rganadigan fanlar masalasiga kelsak, 28 soat davomida inson ruhiyatidagi asosiy holat va jarayonlarni sanab o'tish va ularga qisqacha ta'rif berib o'tish mumkin xolos. Me'yoriy holatni yaxshi bilmagan talaba me'yordan og'ishni qanchalik chuqur anglashi mumkin. Ruhiyatdagi me'yordan og'ishni yaxshi o'rganish uchun avvalo uning me'yoriy holatini obdon o'rganish zarur.

Rivojlangan mamlakatlarda, Rossiya Federeratsiyasi tibbiy OTMlarida psixologiyaning eng zamonaviy yo'nalishlari: psixokardiologiya, psixodermatologiya, psixoimmunologiya, psixoonkologiya, psixoendokrinologiya singari qator fanlar o'qitilmoqda. Bu mamlakatlarda kardiolog mutaxassisligini egallayotgan talaba psixokardiologiyani, endokrinologiya mutaxassisligini egallayotgan talaba psixoendokrinologiyani, bo'lg'usi onkolog psixoonkologiyani egallashi shart hisoblanadi.

Qanchalik og'ir bo'lsa ham e'tirof etish zarurki, bu fanlardan talabalar uyoqda tursin, aksariyat olimlarimiz ham yetarli bilimga ega emas. Buni qayerdan bilasiz, degan savol

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

paydo bo‘lishi mumkin. Men mamlakatimizda keyingi ikki yilda chop etilgan jurnallarni o‘rganib, tibbiyotning sanab o‘tilgan yangi yo‘nalishlari bo‘yicha bironta maqola ham topa olmadim. Bu holat mazkur yo‘nalishlarning mamlakatimizda qanday ahvolda ekanidan dalolat beradi. Tibbiy psixologiya va uning yo‘nalishlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiiq qilish bemorlarning davolanishi va jamiyat salomatligini yaxshilashda juda muhim rol o‘ynagan bo‘lar edi.

Universitetlarning o‘quv rejalariga o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan pedagogik psixologiya va yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya singari fanlar kiritilmagan. Ayni paytda psixologiyaning o‘qituvchilar uchun mutlaqo zarur bo‘lgan bu sohalari bo‘yicha yetarli bilim olmagan bitiruvchilarning 90 foizdan ortiqrog‘i maktablarga o‘qituvchilik qilish uchun bormoqda. O‘qituvchining asosiy vazifalari tushuntirish, uqtirish va shu usullar yordamida o‘quvchilarga bilim berish va tarbiyalash. Ta‘lim jarayoni qisman, tarbiya jarayoni esa, asosan, ongostiga ta‘sir o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Ongostiga ta‘sir qilmay ham ta‘lim va tarbiya tadbirlarini o‘tkazish mumkin. Lekin bunda tadbirlarning samaradorligi juda past bo‘ladi.

Tarbiya jarayonida uqtirishning muhimligi shundaki, o‘quvchilarda uning yordamida ijobiy sifatlarning zarurligiga ishonch hosil qilish orqali bu sifatlarning ongostiga singdiriladi. Bunga faqat pand-nasihatlarni qilish yo‘li bilan erishib bo‘lmaydi.

Hozir ta‘lim tizimimizda o‘quvchilardagi ijodkorlik xususiyatini rivojlantirishga alohida talablar qo‘yilmoqda. Mamlakatimizda ijod maktablari, prezident maktablarini tashkil etishdan ko‘zlanayotgan asosiy maqsadlardan biri ham ijodkorlikni rivojlantirishdir.

Shu talab va maqsadga mos ravishda psixologiya va pedagogika fanlarimizda ijodkorlikni rivojlantirish uslubiyati, texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor berilishi kerak edi. Lekin hozircha psixolog va pedagoglarimizning faoliyatlarida bu masalani tezroq va atroflicha tadqiq etishga intilish sezilmayapti.

Ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha jahon psixologiya fanida mavjud xulosalarga ko‘z yugurtirsak, avvalo, ijodkorlik yana o‘sha ongostida shakllanishi va rivojlanishi ma‘lum bo‘ladi. Ijod maktablarimizda ishlayotgan o‘qituvchi va murabbiylarda esa ongostining tuzilmasi va xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishga e‘tibor berilmayapti. Bizning fikrimizcha, bunday holat bu vazifani bajara oladigan psixologlarning kamligi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Ijodkorlikning doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan bir hodisa bor. Bu ilhom degan hodisadir. Agar o‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida ularda ilhom uyg‘otish muammosini hal qila olsak, oldimizga qo‘yilgan maqsadning yarmiga yetgan bo‘lar edik. Bu vazifani bajarish uchun ham ongostiga murojaat qilishimiz va u bilan ishlashimiz kerak bo‘ladi.

Psixologiyaning mamlakatimizda eng kam rivojlangan, endigina oyoqqa turib kelayotgan sohalaridan biri sport psixologiyasi hisoblanadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha Jismoniy tarbiya va sport universitetida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu universitetning mazkur yo‘nalishini tamomlagan mutaxassislarning nazariy tayyorligini bilmadim-u, lekin men bilganlarim amaliy jihatdan o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlashga to‘la tayyor emas.

Ishonch bilan bunday deyishimga sabab shuki, 2018 yilda Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazida sport psixologiyasi bo‘limi ochiladigan bo‘ldi. Shu bo‘limga mutaxassislarni olish uchun maxsus komissiya tuzildi va mendan shu bo‘limga ishga kirmoqchi bo‘lgan talabgorlar bilan suhbatlashib ular orasidan bo‘limda ishlashga yaraydiganlarini tanlashda yordam berishimni so‘rashdi. Men yigirmadan ortiq davog‘ar bilan suhbatlashdim. Ularning yarmiga yaqini sport psixologiyasi yo‘nalishini bitirganlar edi. Suhbatga kelganlarning deyarli barchasi sport musobaqalari va mashqlari davomida yuz beradigan psixologik holat bo‘yicha berilgan eng oddiy savolarga ham javob berolmay sukut saqlashdi. Sportchi mahorati o‘zi tanlagan sport turidagi zarur ko‘nikmalarni qanchalik puxta egallashiga bog‘liq. Ko‘nikmalar esa barcha darslik va qo‘llanmalarda takrorlanayotganidek, zarur amallarni ko‘p marta takrorlash natijasida shakllanadi. Sportchi zarur ko‘nikmani shakllantirish uchun uni yuzlab va minglab marta takrorlaydi. Bu ko‘nikmalar ongda emas, ongostida shakllanadi. Shuning uchun murabbiy yoki jamoa psixologi ongostiga ta’sir o‘tkazish usullaridan xabardor bo‘lsa, zarur ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini bir necha marta tezlashtirish mumkin.

XULOSA

Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklarning mavjudligi va tez tugatilmayotgani sabablaridan biri, bizningcha, mamlakatimizda psixologiya bo‘yicha yagona ilmiy-metodik markazning yo‘qligida. Aytaylik, Rossiyada psixologiya bo‘yicha o‘nlab ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari ishlab turgan paytda, mamlakatimizda psixologiya bo‘yicha birorta ham ilmiy-tadqiqot instituti yoki shunday institutning o‘rnini bosa oladigan markaz yo‘q. Ana shunday ilmiy-tadqiqot instituti tuzilsa va unda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

tegishli bilim va malakaga ega bo‘lgan olim va mutaxassislar jamlansa, bu sohadagi ishlarimiz ancha jonlangan bo‘lar edi.

Nafaqat sport, balki, ta’lim-tarbiya, tibbiyot va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham psixologiya fanida vujudga kelayotgan yangiliklarni o‘rganish va imkon boricha amaliyotga tadbiiq qilish Yangi O‘zbekistonning tezroq shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Madumarov Talatbek Tolibjonovich, & Gulomjonov Odiljon Rahimjon o'g'li. (2021). PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF A LEASING MECHANISM IN PUBLIC - PRIVATE PARTNERSHIP. International Engineering Journal For Research & Development, 6(SP), 5. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7MXR3>
2. Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
5. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 b.
6. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003, - 320 b.
7. Internet tarmog'idagi veb-saytlar ro'yxati:
8. www.expert.psychology.ru
9. www.psychology.all.ru

Research Science and
Innovation House

AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM TIZIMDAGI O'RNI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo'nalishi talabasi

Toshmatova Gulyora

gulyoratoshmatova24@gmail.com

Andijon Davlat Pedagogika Instituti “Maktabgacha ta'lim pedagogika va
psixologiyasi” yo'nalishi talabasi

Ma'rufjonova Xusnigul

husnigulmarufjonova5@gmail.com

Annotatsiya: Chet tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish orqali yosh avlodga chet tillarini o'rgatish, ushbu tillarni mukammal biladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimi zamonaviy uslub, texnologiya va uslublar. tubdan takomillashtirish va shu asosda ularning jahon sivilizatsiyasidagi yutuqlari va jahon axborot resurslaridan kengroq foydalanishi uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish maqsadida chet tillarini o'qitish. yaratish va ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari.

Kalit so'zlar: Imitatsion modellar, innovatsion texnologiyalar, o'quv-metodik, predmetlar, Asinxron elektron ta'lim, dasturiy qurilmalar.

Аннотация: Обучение иностранным языкам подрастающего поколения путем применения инновационных технологий в обучении иностранным языкам и внедрения передовых методов обучения с использованием коммуникативных технологий, системы подготовки специалистов, владеющих этими языками в совершенстве, современного стиля, технологий и методов. коренным образом совершенствовать и на этой основе создавать условия и возможности для своих достижений в мировой цивилизации и более широкого использования мировых информационных ресурсов, преподавания иностранных языков в целях развития международного сотрудничества и общения. вопросы создания и внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: Имитационные модели, инновационные технологии, методы обучения, предметы, Асинхронное электронное образование, программные устройства.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Abstract: Teaching foreign languages to the younger generation through the use of innovative technologies in the teaching of foreign languages and the introduction of advanced methods of teaching using communication technologies, the system of training specialists who are fluent in these languages modern methods, technologies and methods of teaching foreign languages in order to radically improve and on this basis to create conditions and opportunities for their achievements in world civilization and the wider use of world information resources, the development of international cooperation and dialogue. issues of creation and implementation in the educational proces.

Keywords: Imitation models, innovative technologies, teaching methods, subjects, Asynchronous learning, equipments.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'limni rivojlantirish unda sifat darajasini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishi keng tarqalgan metodik qo'llanmalardan biriga aylandi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni talimda kiritilishi ta'lim jarayonini osonlashtirdi desak adashmaymiz. Mustaqilligimizdan so'ng "kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta'lim sifatiga e'tibor yanada kuchaydi. Unda o'qituvchi bilim malakalarini oshirish o'quvchilar, talabalar bilan ishlashda yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Ushbu kurslar asosan ta'limda innovatsion qurilmalar ya'ni kompyuter imitatsion modellarni dars jarayonlarida foydalanash hamda zamonaviy texnologik qurilmalardan keng qo'llamda ishlatilish imkoniyatlarini berdi. So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash savol miqiyosida ko'tarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chet tili o'qitish asosiy maqsadi chet tilida amaliy mahoratini o'rganish, talabalar kommunikativ madaniyat shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy tilda so'z o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu faqat so'zni eslash va to'g'ri talaffuz qilish bilan birga qayerda va qanday qo'llashni bilish kerakligi haqida ham fikr yuritiladi. Yangi texnologiyalar amaliyotga faol va mustaqil ravishda xorijiy so'zlarni o'rganishda talabalar uchun ko'plab resurslarni yaratdi. Xususan chet tilini o'rganishda oldin lingafon xonalardan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi paytda uning o'rniga kompyuter laboratoriyalar faoliyat ko'rsatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabr PQ-1875 sonli ""Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida " Zamonaviy pedagogik va axborot

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida "belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida chet tillarni o'qitishning zamonaviy, texnologiyalarini, usullarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish masalalari dolzarb bo'lib turibdi. Chet tilini o'qitish uchun o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda o'quvchilarni rivojlanishini e'tiborga olgan holda maxsus o'quv dasturlar yaratish, ta'lim tizimini axborot va ilmiy-metodik ta'minlash, bazisli o'quv rejalarini va namunali kurs dasturlarini ishlab chiqish, o'quv adabiyotlarni chop etishni tashkillashtirish, o'quv qo'llanmalar va darsliklarni turli ko'rinishdagi taqdimotlarni axborot texnologiyalari asosida virtual resurslar ko'rinishida yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish, ta'lim muassalarida qo'llaniladigan metodikalarni pedagogik texnologiyalardan foydalanib mukammallashtirish va masofali ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarni yechishni talab qiladi. Chet tilini o'qitish uchun o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda o'quvchilarni rivojlanishini e'tiborga olgan holda maxsus o'quv dasturlar yaratish, ta'lim tizimini axborot va ilmiy-metodik ta'minlash, bazisli o'quv rejalarini va namunali kurs dasturlarini ishlab chiqish, o'quv adabiyotlarni chop etishni tashkillashtirish, o'quv qo'llanmalarni yaratishni yo'lga qo'yish, ta'lim muassalarida qo'llaniladigan metodikadan foydalanish, ularni mukammallashtirish va masofali ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarni echishni talab qiladi. —

Chet tilini (ingliz tilini) o'qitishda 5 yoshgacha bo'lgan bolalardan boshlab maktabgacha ta'lim muassasalari, umum ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylar, oliy ta'limni qamrab oladigan o'qitish tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu o'qitish tizimini yaratishdan maqsad farzand dunyoga kelgandan boshlab uning ulg'ayib borish davri mobaynida ta'lim muassalarining turli bo'g'inlarda bilim olishi ta'minlanadi. Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda axborot-kommunikatsion texnologilardan (AKT) foydalanib o'quv-metodik adabiyotlar tizimini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash tamoyillarini ishlab chiqish va uning asosida dars jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Albatta biz bilamizki yosh avlodni tarbiyalashda har tomonlama yetuk qilishda astoyidil e'tibor talab qiladi. Chunki ta'lim berishda hozirda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

qo'llanilayotgan metodlar yoki multimedia vositalari orqali ularga yoritib berilayotgan mavzular so'zimiz dalilidir. Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida (MTM) ingliz tilini o'qitishni tashkil qilish masalasi yotadi. Aytish joizki, hozirgi kunda ta'lim texnologiyasi tushunchasini keng ma'noda tushunish mumkin, ham pedagogik fan sohasi sifatida, ham ma'lum o'qitish texnologiyasi sifatida ham zamonaviy elektron texnologiyalar sifatida. Chunki hozirda elektron texnologiyalar, elektron ta'lim tushunchalari nafaqat jamiyatda balki talimda ham o'z aksini topmoqda. Butun dunyoda elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va undan foydalanish ommalashib ketdi. Sababi bunday ma'lumotlar bilan ishlash qog'ozli ma'lumotlarga qaraganda bir qancha afzalliklarga ega:

1. Butun ma'lumotlar ichidan kerakli qismini tez topib olish;
2. Lozim bo'lganda uni tez tahrirlash, yangilash;
3. Internet orqali ko'zlangan boshqa manzilga tez yetkazib berish;
4. Elektron kutubxona yaratish.

Elektron axborot ta'lim resurslari bir necha turlarga bo'linadi:

1. Kompyuterdagi oddiy elektron variant;
2. Elektron darslik;
3. Elektron o'quv-uslubiy majmua.

Elektron darslik uning xususiyatiga qarab o'ziga xos nomlanadi, ya'ni, elektron darslik, elektron qo'llanma, elektron kitob, elektron dasturlar. Bularni barchasi albatta ta'lim sifatini oshirishga hamda undagi qog'oz emas balki elektron raqamli bazani yaratishda yordam beradigan vosita hisoblanadi. Yuqoridagi sanab o'tilgan elektron darsliklarni qulayliklari shundan iboratki, ularda vaqtni tejash ma'lumotlarni yetqazib International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages" berishni osonlashtirish, ko'nikmani hosil qilish hamda tushunchani paydo bo'lishda visual ko'maklashishni taminlashdir. Hozirgi paytda ayniqsa chet tili darslarida zamonaviy elektron multimedion texnologiyalarni qollash innovatsiyalari kirib kelmoqda. Bu hol nafaqat maktab yoki akademik kasb-hunar kollejarida balki Oliy talim muassasalarida ham kirib kelmoqda. Shuning uchun Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ingliz tilini AKT asosida o'qitishning o'quv-uslubiy jihatlarini yaratishdan iborat bolgan muammolar hozirda oz yechimini topish arafasida turibdi. OTM larida ingliz tilini o'qitishda o'quv-adabiyotlarini AKT asosida tashkil qilishda turli ko'rinishdagi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. OTM larida MED larni yaratishda kompyuter imitatsion modellari

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

(KIM) yordamida ingliz tilida o'qitilayotgan mavzuning mazmun, mohiyatini ochib berishga e'tiborni qaratish lozim. KIM asosida o'quv jarayonini tashkil qilish imkoniyati ingliz tilini o'qitishda darslarni jonli tarzda o'tishga imkoniyat yaratadi. Ayrim mavzularni o'qitishda esa jarayonlarni kuzatish, ularni takror ko'rish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Bundan tashqari KIM asosida olib borilgan tayyorgarlik natijasida berilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni o'zlashtirish va grammatik qoidalarni esda qoldirish imkoniyati kengayadi. Ayniqsa talabalarda beriladigan visual mashqlar ularda tushuncha hosil bo'lishda oson ko'maklashadi, dars jarayonini faollashtiradi. Ushbu mavzulashirilgan kompyuter imitatsion modellarning avfzalligi shundaki talabalarda tushuncha tezroq paydo bo'ladi, mavzuni analiz qilishlari yana osonlashadi. OO'MT larida ingliz tilini o'qitishda o'quv-adabiyotlarini AKT asosida tashkil qilishda turli ko'rinishdagi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. OO'MT larida ingliz tili bo'yicha predmetlarni o'qitishda multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish, virtual resurslar yaratishda kompyuter imitatsion modellari (KIM) yordamida o'qitilayotgan mavzuning mazmun, mohiyatini ochib berishga qaratilgan texnologiyalardan foydalanish e'tiborga loyiq. KIM asosida o'quv jarayonini tashkil qilish, ingliz tilini o'qitishda darslarni jonli tarzda o'tishga imkoniyat beradi. Ayrim mavzularni o'qitishda esa dinamik jarayonlar uchun imitatsion modellar yaratish, kuzatish, ularni takror ko'rish kabi qulayliklarni yaratadi. Bundan tashqari bir tomondan, KIM asosida mavzularni tayyorlash va ularga tegishli tushunchalarni hamda grammatik qoidalarga oid sxemalarni o'zlashtirishga zamin yaratsa, ikkinchi tomondan esa talabalarni mustaqil o'qish va o'zlashtirishi uchun samarali vositalar yaratiladi. Ingliz tili predmetlaridan yaratilayotgan virtual resurslar o'quv jarayonida maruza, amaliyot darslarini birgalikda olib borishga International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages" qulaylik yaratishi bilan bir qatorda, ulardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish imkonini ham beradi. Talabalar uchun bunday vositalarning yaratilishi ingliz tilini o'rganish va o'zlashtirishiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kompyuter imitatsion modlellarni talabalar uyga olib ham foydalanishlari mumkin. Hozirgi kunda elektron darsliklarni flash tarqatuvchi vositalar orqali o'zlari mustaqil o'rganish imkoniyatlari ham mavjud. Bunda talabalar mustaqil ta'lim sifatida o'zlari mustaqil ravishda ham foydalanish imkoniyatlari mavjud. Bizda ma'lumki ta'lim jarayonida innovatsion ishlar juda kop kuzatilmoqda shularda masofaviy ta'lim olib uning ham qulayliklari juda kop o'rganuvchi xoxlagan paytida masofaviy ta'limda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

foydalanish imkoniyatiga egadir. Bunda qulayliklardan yana bittasi Oliy o'quv yurtlarida bormasdan ham foydalanish huquqi berilgan. Ushbu qulayliklar nafaqat talabaga, balki o'qituvchiga ham juda katta yordam beradi. Sababi ikkala tomon ham o'zaro kompyuter texnologiyasi orqali muloqotni amalga oshiradi ushbu muloqot jarayonida nafaqat yonaltirilgan fan balki innovatsion texnologiya orqali ham foydalanib o'zlarida konikma hosil qiladi. Oliy ta'lim o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero ananaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. Axborot muhiti zamonaviy darajadagi axborot bazalari, gipermatn va multimediya, imitatsion o'qitish, elektron kommunikatsiyalar, ekspert tizimlarini kiritadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda elektron ta'lim ko'pchilik OTM'larda ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolgan, u shuningdek, malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ham o'z o'rnini topgan, ba'zi korporatsiyalarda bo'linmalar mavjud bo'lib, ularning vazifasi xizmatchilar uchun elektron kurslar tashkil etishdir Yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati — chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, universitetga kirib-o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi. O'qish va ishni birga qo'shib olib borish — o'quvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar, bu, ayniqsa, malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma'lumot oluvchilarga juda qo'l keladi. Sifatli texnologiyalar va o'quv mazmunini egallash — talaba sifatli o'quv materiallari yordamida o'qitilishi, o'qituvchi bilan muloqat qilishi va o'z individual o'quv rejasini tuzishi mumkin. Baholashning xolisligi — masofaviy ta'lim texnologiyalari bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishi, inson omilidan xoli bo'lgan xolis avtomatlashtirilgan baholash joylarda moddiy manfaatdorlikni yo'qotishni ko'zda tutadi. Hech ikkilanmay ayta olamizki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati juda ham yuqori bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda kompyuter o'qitishning qudratli vositasiga aylangan. Kompyuterli texnologiyada o'qituvchinng ishi, V. K. Selefko ta'kidlaganidek, quyidagilardan iborat:

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

- a) butun sinf o'quv predmeti darajasida o'quv jarayonini tashkillashtirish (o'quv jarayoni grafigi, sirtqi tashhis, yakuniy nazorat);
- b) sinf ichida o'quvchilarni faollashtirish va ularning ishini muvofiqlashtirish, ish o'rinlarini joylashtirish, yo'riqnoma berish, sinf ichkarisidagi tarmoqni boshqarish kabilar;
- v) o'quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish, bolalar bilan individual «insoniy» munosabat. Kompyuter yordamida individual o'qitishning ko'rish va eshitish obrazlarini foydalanuvchi mukammal variantiga erishiladi;
- g) axborot muhiti tarkibiy qismlarini tayyorlash, ularning ma'lum bir o'quv fani mazmuni bilan bog'liqligidan iborat. Xususan, multimediya texnologiyalaridan foydalanib interfaol darslarni o'tkazish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. Khasanova, G. K. (2021). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, ^ (Special Issue 1),
2. Kh, Khasanova G., and Kenjaboev Sh Kh. "The role of education system in human capital development." Восточно-европейский научный журнал 2-1 (66) (2021):
3. ХАСАНОВА Г. Х. General and professional education systems of Uzbekistan and Japan: a comparative analysis //Иностранные языки в Узбекистане. - 2020. - №. 1. - С. 83-97. 4.
- Turg'unboyev, 2010: 58,
5. Choriyev, 2010: 254-256,
6. Mavlonova, 2015: 235,
7. Tolipov, 2018: 26,
8. Asqarov, 2020: 67-69
9. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In Китайская лингвистика и синология (pp. 384-387).
10. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021).

Qisqichbaqasimonlar (Crustacea) sinfi sistematikasi va ahamiyati

Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya yo‘nalishi talabasi

Toshmatova Gulyora Muxitdin qizi

toshmatovagulyora24@gmail.com

Annotatsiya: Bo‘g‘imoyoqlilar keng tarqalgan tip hisoblanib, ularning soni 2mlndan oshadi. Bo‘g‘imoyoqlilar tanasi xitin modda bilan qoplangan. Suv muhitda yashaydigan vakillari jabralar bilan, quruqlikdagi vakillarida o‘pka rivojlangan. Traxeyalar ham nafas olishda ishtirok etadi. Tana bo‘shlig‘i aralash- miksotseldan iborat. Tanasi va oyoqlari bo‘g‘imlarga bo‘lingan.

Kalit so‘zlar: Bog‘imoyoqlilar, qisqichbaqasimonlar, miksotsel, ostiyalar, gemolimfa, selom.

Abstract: Arthropods are a widespread type, their number exceeds 2 million. The body of arthropods is covered with chitin. The representatives living in the aquatic environment have wounds, and the representatives living on land have developed lungs. Tracheas are also involved in breathing. The body cavity consists of a mixed myxocell. The body and legs are divided into joints.

Key words: Arthropods, crustaceans, myxoceles, ostians, hemolymph, celom

Аннотация: Членистоногие — широко распространенный вид, их численность превышает 2 миллиона. Тело членистоногих покрыто хитином. У представителей, обитающих в водной среде, имеются раны, а у представителей, обитающих на суше, развиты легкие. Трахеи также участвуют в дыхании. Полость тела состоит из смешанной миксоцелки. Тело и ноги разделены на суставы.

Ключевые слова: Членистоногие, ракообразные, миксоцеле, остии, гемолимфа, целом.

Birlamchi suv hayvonlari hisoblangan **Qisqichbaqasimonlar (Crustacea)** sinfi **Bo‘g‘imoyoqlilar (Arthropoda)** tipi, **Jabra bilan nafas oluvchilar (Branchiata)** kenja tipining yagona sinfi hisoblanadi. Bo‘g‘imoyoqlilar tipi 4 ta *kenja tipga* bo‘linadi. Bular:

1. Jabra bilan nafas oluvchilar;
2. Traxeyalilar;

3. Xelitseralilar;

4. Qirilib ketgan trilobitsimonlar kenja tipga bo‘linadi.

Qisqichbaqasimonlar ko‘pchilik turlari (zaxkash, ayrim krablardan tashqari) suvda, ayniqsa, dengizda keng tarqalgan. Ular yer yuzida keng tarqalgan bo‘lib, tropikdan to shimoliy mintaqalardagi barcha suv havzalarida tarqalgan. Bo‘g‘imoyoqlilar 2mln dan ortiq turdan iborat bo‘lsa, undan 30 mingga yaqini qisqichbaqasimonlardir.

Qisqichbaqasimonlar quyidagi *kenja sinflarga* bo‘linadi.

1. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlar (Branchiopoda) kenja sinfi

1.1 jabraoyoqlilar (Anostraca) turkumi;

1.2 bargoyoqlilar (Phyllopoda) turkumi.

Bargoyoqlilar turkumi 2 ta kenja turkumga bo‘linadi:

1.2.1 qalqondorlar (Notostraca) kenja turkumi;

1.2.2 Shoxdor mo‘ylovli qisqichbaqalqr (Cladocera) kenja turkumi.

2. Sefalokaridlar Cerhalocarida) kenja sinfi

3. Maxillopodlar (jabraoyoqlilar) kenja sinfi

3.1 Mistakokaridlar;

3.2 Kurakoyoqlilar;

3.3 Karpxo‘rlilar;

3.4 Mo‘ylovoyoqlilar;

3.5 Xaltako‘kraklilar turkumlariga bo‘linadi.

4. Chig‘anoqli qisqichbaqasimonlar (Ostracoda) kenja sinfi

5. Yuksak qisqichbaqasimonlar (Malacostraca) kenja sinfi

Ushbu kenja sinf 14 turkum, 14000 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. Asosiy turkumlari quyidagilar:

5.1 Tengoyoqlilar turkumi;

5.2 Har xil oyoqlilar ya’ni yonlab suzarlar turkumi;

5.3 O‘noyoqlilar turkumi;

5.3.1 Uzun qorinlilar kenja turkumi;

5.3.2 Chala qorinlilar kenja turkumi;

5.3.3 Chala dumlilar kenja turkumi;

6. Kalta dumlilar turkumi.

Qisqichbaqasimonlar chuchuk suvlarda, dengizlarda tarqalgan bo‘lib, ko‘p turlari plankton organizm hisoblanadi.

Kurakoyoqlilar kenja sinfi,

garpattikoidlar turkumi

Diocaksidlar oilasi vakili-orol shizoperasi qirg‘oqlardagi kam sho‘rlangan suvlar tubida va suv o‘tlarining orasida yashaydi. Orol dengizida uchraydi. Kam o‘rganilgan. Organik chirindilar va suv o‘tlari bilan oziqlanadi. Baliqlar uchun ozuqa manbayidir. Hozirgi kunda turlar soni keskin kamayib bormoqda.

Kleotidlar oilasi vakili-kichraygan shizopera. Lichinkalari suv qatlamida faol suzib yuradi.

Chig‘anoqlilar kenja sinfi

Podokopidlar turkumi

Siteridlar oilasi vakili - orol limnositerasi.

Oliy qisqichbaqasimonlar kenja sinfi

Yonsuzarlar turkumi

Gammaridlar oilasi vakili-orol yonsuzari kabi vakillari orol dengizida tarqalgan bo‘lib, soni kamayib bormoqda.

O‘noyoqlilar turkumi

Daryo qisqichbaqalari oilasi vakili - Turkiston qisqichbaqasi pasttekisliklardagi, kichik daryo va kanallar suvlarida yashaydi. Kuzda urchiydi. Urg‘ochisi urug‘langan uvildirig‘ini iyungacha ko‘tarib yuradi. Sirdaryo, Surxon daryosi suvlarida uchraydi.

Hazm qilishi: og‘zi boshining ostki tomonida joylashgan. Ichagining ichki yuzasi xitin kutikula bilan qoplangan. Og‘iz teshigidan yuqoriga tik yo‘nalgan oldingi qismi qisqa halqumni, keying qismi ikki bo‘lmali oshqozonni hosil qiladi. O‘rta ichak juda kalta bo‘lib, jigar bilan qoplangan. Jigar suyuqligi yog‘ moddalarniemulsiya holiga keltiradi, oqsil va karbonsuvlarni parchalaydi. Ko‘pchilik tuban qisqichbaqasimonlarda o‘rta ichak yaxshi rivojlanmagan.

Nafas olishi: sikloplar maxsus nafas olisg organi bo‘lmaganligi tufayli terisi bilan nafas oladi. Ko‘pchilik turlari jabra bilan nafas oladi. Jabralarning juda yupqa kutikulasi orqali gaz almashinuvi sodir bo‘ladi.

Quruqlikda hayot kechiradigan qisqichbaqasimonlarda atmosfera havosi bilan nafas olishga imkon beruvchi maxsus moslanishlar paydo bo‘lgan. *Hurmo o‘g‘risi* qisqichbaqasining jabralari o‘rnida o‘pka joylashgan. Zaxkashlarning qorin bo‘limida murakkab tarmoqlangan havo naychalari joylashgan.

Qon aylanishi: Qisqichbaqasimonlar ochiq qon aylanish sistemasiga ega. Gemolimfasi tomirlarda, qisman tana bo‘shlig‘idagi sinuslarda oqadi. Ularning yuragi

nay yoki pufakka o'xshash, tanasining orqasida joylashgan. Yurak devorida tirqishsimon teshik-ostiylari bo'ladi. Jabralardagi kislorodga to'yingan qon Jabra oldi bo'shliqqa quyiladi. Yurak kengayganda ostiylar ochilib, gemolimfa yurakka o'tadi. Yurak qisqarganda aksincha bo'ladi. Klapan yopilib, gemolimfa yurakdan chiquvchi arteriya tomirlarga o'tadi.

Ayirish sistemasi: 1-2 juft antennal yoki maksillar bezlardan iborat. Yuksak qisqichbaqasimonlarning ayirish o'rganlari bosh qismida joylashgan bir juft chigal naychalardan iborat. Bir Uchida selomik xaltacha, bir uchida siydik pufagi joylashgan bo'ladi. Qovuq antennalarning asosida tashqariga ochiladi. Shuning uchun yuksak qisqichbaqasimonlarning ayirish sistemasi antennal bezlar deyiladi. Lichinkasida esa maksillar bezlardan iborat. Soda vakillarida bir juftdan maksillar bezlardan iborat. Ayrim qisqichbaqasimonlarda (Leptostraca) turkumida 2 xil bezlar rivojlangan.

Nerv sistemasi: jabraoyoqlilarda bir juft bosh gangliylari, halqum atrofi konnektivalar, nerv stvollari, nerv tugunchasi-gangliylar bo'ladi. Qisqichbaqasimonlarning bosh miyasi prototserobrum, deytotserebrum, tritotserebrum bo'limlaridan iborat. Qisqichbaqasimonlar va hamma bo'g'imoyoqlilar tanasidagi nerv sistemasi tarkibiga garmonlar ishlab chiqaruvchi maxsus neyrosekretor bezlar ham kiradi. Gormon gemolimfaga tushib, barcha organ faoliyatiga metamarfoziga ta'sir ko'rsatadi.

Sezgi organlari: tuyg'u, hid bilish, ko'rish, muvozanat saqlash organlari yaxshi rivojlangan. Ko'rish o'rgani bitta nauplius, ikkita fasetkali ko'zlardan iborat. Fasetkali ko'zlar juda ko'p mayda ko'zchalar ommatidlardan iborat. Daryo qisqichbaqasida 3000 dan ko'proq ommatidlar bo'ladi.

Qisqichbaqasimonlar baliqlar uchun asosiy ozuqa, shuningdek, odalar uchun oziq-ovqat sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Oziq ovqat uchun daryo qisqichbaqalari, omalar, langustlar, krevetkalar, krablar ishlatiladi. Har yili 1mln tonnage yaqin qisqichbaqalar ovlanadi. Krevetkalar esa sun'iy ko'paytiriladi. Kamchatka Krabi eng ko'p ovlanadigan tur hisoblanadi. Hozirgi kunda krabni shimoliy dengizlar, xususan, Barents dengizida ko'paytirish yo'lga qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umurtqasizlar zoologiyasi” O.Mavlonov, Sh. Hurrarov, X.Eshova
O‘zbekiston milliy ensiklopediya davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2006-y.
2. “Umurtqasizlar zoologiyasi” Z.Norboyev, O.Mavlonov, Sh. Hurrarov.
Toshkent “O‘zbekiston” 2002-y.
3. “Umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv-dala amaliyoti” A. Qulmamatov.
Toshkent “O‘qituvchi” 2004.
4. Wikipedia. Uz.
5. Arxiv. Uz.



Research Science and
Innovation House

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “QIZIL KITABI”GA (2009 VA
2019) KIRITILGAN LIMONIACEAE OILASI VAKILLARINING
SOLISHTIRMA TAXLILI**

G.Toshmatova – ADPI, Biologiya yo’nalishi talabasi
M.U.Tojiboyev – ADPI, Tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti
tmurodali74@gmail.com, toshmatovagulyora24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ning 4-nashri (2009) va 6-nashri (2019)ga kiritilgan Karmakdoshlar oilasining solishtirma tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qizil Kitob, karmakdoshlar oilasi, kamyoqlik darajasi, endemik turlar, sistematika.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ рода Кармакдош, включенного в 4-е (2009 г.) и 6-е издания (2019 г.) «Красной книги» Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Кызыл Китаб, семейство кармакад, степень редкости, эндемичные виды, систематика.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the Karmakdosh family included in the 4th edition (2009) and 6th edition (2019) of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

Key words: Kyzil Kitab, family of karmakads, degree of rarity, endemic species, systematics.

Bizning yurtimiz turli-tuman o'simlik qoplami bilan ajralib turadi. O'simliklar florasida yer yuzini qoplagan bo'lib, dunyo bo'yicha ularni saqlab qolish hamda muxofaza qilish yuzasidan “Qizil kitob” ta'xis etilgan. O'zbekiston Respublikasi hududida 4500 ga yaqin oliy yovvoyi o'simlik va 2000 mingdan ortiq zamburug' turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'plab kamyoqlik endemik va relik turlar ham bor. Endemik o'simliklar-tarqalishi nisbatan kichik geografik hudud bilan cheklangan o'simliklar hisoblanadi. Bunday turlarning soni 300 dan ortiq bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12 % ini tashkil qiladi. Ushbu 300 dan ziyod o'simliklar orasida yillar davomida areali kengayib, turlar soni ortganlari “Qizil kitob”dan chiqarilib kelinmoqda. Yoki aksincha, inson va boshqa tabiiy omillar natijasida qisqarib borayotgan maydon

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

o’simliklari o’z vaqtida muxofazaga olinmoqda. O’simlik o’z kamyoblik darajasini u yoki bu tomonga o’zgartirib turishi mumkin. O’simlik dunyosini muxofaza qilishda keng omma ishtirok etgan taqdirda ijobiy natijalar beradi. Shundagina biz kelgusi avlodlar uchun nabodot olamini bebaho boyligini saqlab qolgan bo‘lamiz.

“Qizil Kitob”da har bir turning o‘zbekcha, lotincha, ruscha nomlari va ularning qaysi oila hamda turkumga mansubligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, turlarning qisqacha tavsifi (hayotiy shakli, bo‘yi, shox-shabbasi, bargi, guli, mevasi va fenologiyasi) tarqalishi va chizma xaritada uchraydigan joylari berib o‘tilgan. Bu esa “Qizil kitob”ning mukammal ishlab chiqilganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yildagi nashri bo‘yicha
Karmakdoshlar oilasi vakillari haqida ma’lumot.
(1-jadval)

№	Tur nomi	Kamyoblik darajasi	Hayot shakli	Tarqalish mintaqasi	Tarqalish soni	Madaniylash tirish
1.	Anna kirpio’ti АКАНТОЛИМОН АННЫ Acantholimon annaë	2. Hisor tog’idagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Surxondaryo viloyati Hisor tizmasi To’polon daryosi xavzasida tarqalgan.	Ko’p emas, to’p-to’p bo’lib uchraydi.	Ma’lumotlar yo’q
2.	Yekatrina kirpio’ti	2.	Yarim buta	Toshkent viloyati: Chotqol	Tuplari bir-biridan	Ma’lumotlar yo’q

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

	Акантолимон Екатерины Acantholimon ecatherinae	Chotqol tizmasidagi kamyob, endem tur		tizmasining Chimyon tog’ida tarqalgan.	ancha uzoq.	
3.	Margarita kirpio’ti Акантолимон Маргариты Acantholimon margaritae	2. Qurama tizmasidagi kamyob, endem tur	Buta	Toshkent viloyati qurama tizmasi Oxangaron daryosining chap tomonida tarqalgan.	Areal bo’ylab yakka- yakka holda tarqalgan.	Ma’lumotlar yo’q
4.	Nurota kirpio’ti Акантолимон нуратинский Acantholimon nuratavicum	2. Nurota tizmasidagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Navoiy viloyati Nurota tizmasida tarqalgan.	Kam. Kichik- kichik to’p hosil qiladi.	Ma’lumotlar yo’q
5.	Tuxumoyoq ildizbosh Корнеглав яйценогий Cephalorhizum oopodum	1. Janubiy Pomir- oloydagi juda kamyob, endem tur	Ko’p yillik o’t	Surxondaryo viloyati: Kelif- Sherobod tepaliklarida tarqalgan.	13 tup o’simlik bor.	Ma’lumotlar yo’q

2009-yil “Qizil Kitob”iga nazar tashlasak, 324 ta tur mavjud, oilaning 5 ta turi kiritilgan. U jami turlarning 1.6 foizini tashkil etadi. Ushbu 5 ta vakillar (kamyob turlar)-4 ta; yo‘qolish arafasida turgan turlar(maqomi1)-1 ta, yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turlar (maqomi 0), son jihatdan kamayib borayotgan turlar(maqomi3)

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

mavjud emas. Ushbu turlar haqida ko'plab ma'lumot olishimiz uchun rus, o'zbek, lotin tillarida nomlari berib otildi. Bu turlarning nomlari: Anna kirpio'ti, Yekatrina kirpio'ti, **Margarita kirpio'ti**, Nurota kirpio'ti, Tuxumoyoq ildizbosh kabi vakillardir.

Ushbu oila vakillarini taxlil qiladigan bo'lsak, 1 ta ko'p yillik o't, 3 ta yarim buta va 1 ta buta hayotiy shakllarni ko'rish mumkin. Ko'pchilik vakillari soni aniq emas. Chunki, ular soni juda kam maydonlarda tarqalgan. O'simliklarning madaniylashtirilganligi va muxofaza qilish choralari haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2019-yildagi nashri bo'yicha Karmakdoshlar oilasi vakillari haqida ma'lumot. (2-jadval)

Tur nomi	Kamyoblilik darajasi	Hayot shakli	Tarqalish mintaqasi	Tarqalish soni	Madaniylashtirish
Anna kirpio'ti Акантолимон Анны Acantholimon annae	2. Hisor tog'idagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Surxondaryo viloyati Hisor tizmasi To'palang daryosi xavzasida tarqalgan.	Kam sonli populatsiya, tabiatda kam uchraydi.	Ma'lumot yo'q
Yekatrina kirpio'ti Акантолимон Екатерины Acantholimon ecatherinae	2. Chotqol tizmasidagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Toshkent viloyati: Chotqol tizmasining Chimyon tog'ida tarqalgan.	Aniqlanmagan	Ma'lumot yo'q

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

<p>Margarita kirpio'ti Акантолимон и Маргариты Acantholimon margaritae</p>	<p align="center">2.</p> <p>Qurama tizmasida gi kamyob, endem tur</p>	<p>Buta</p>	<p>Toshkent viloyati qurama tizmasi Oxangaron daryosining chap tomonida tarqalgan.</p>	<p>Areal bo'ylab juda kam tarqalgan.</p>	<p>O'z FA botanika bog'i</p>
<p>Nurota kirpio'ti</p> <p>Акантолимон нуратинский Acantholimon nuratavicum</p>	<p align="center">2.</p> <p>Nurota tizmasida gi kamyob, endem tur</p>	<p>Yarim buta</p>	<p>Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlari: Nurota tizmasida tarqalgan.</p>	<p>Kichik populatsiyalar 20-30dan 100-200 tupgacha bo'lishi mumkin.</p>	<p>Ma'lumot yo'q</p>
<p>Tuxumoyoq ildizbosh</p> <p>Корнеглав яйценогий Cephalorhizum oopodum</p>	<p align="center">2.</p> <p>Janubiy Pomir-oloydagi kamyob, endem tur</p>	<p>Ko'p yillik o't</p>	<p>Surxondaryo viloyati: Kelif-Sherobod tepaliklarida tarqalgan.</p>	<p>2009-yilgi ma'lumotga ko'ra 13 tup o'simlik bor.</p>	<p>Ma'lumot yo'q</p>
<p>Deyarli sulisimon kirpio't</p> <p>Акантолимон почтиовсовый Acantholimon subavenaceum</p>	<p align="center">2.</p> <p>Nurota tizmasidagi kamyob endemik tur.</p>	<p>Yarim buta</p>	<p>Samarqand, Navoiy, Sentobsoy, Ustuksoy.</p>	<p>Yakka-yakka, ba'zan kichik to'p hosil qiladi.</p>	<p>Ma'lumot yo'q</p>

2019-yil nashriga to'xtaladigan bo'lsak, karmakdoshlar oilasining 6 ta vakili berilgan. Bu esa 314 ta turning 1.9%ini tashkil qiladi. Bu vakillarning ko'pchiligi Surxondaryo, Xorazm, Samarqandda tarqalgan. Bu vakillar: Anna kirpio'ti, Yekatrina kirpio'ti, **Margarita kirpio'ti**, Nurota kirpio'ti, Tuxumoyoq ildizbosh, Deyarli sulisimon kirpio't kabi vakillardir. Ushbu oila vakillarini taxlil qilar ekanmiz, 1 ta ko'p yillik o't, 4 ta yarim buta va 1 ta buta hayotiy shakllarni ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2009- yil nashrida 5 ta tur, 2019 yil nashrida 6 ta tur “Qizil Kitob”ga kiritilgan. Qo'shimcha tur sifatida deyarli sulisimon kirpio't kiritilgan. Undan tashqari 1 maqomga ega tuxumoyoq ildizbosh 2 darajaga tushgan. Bu esa uning holati yaxshilangandan darak beradi. Shunda, bu oila vakillarining maqomi barchasi 2 maqomni tashkil etadi. Margarita kirpio'ti esa O'Z FA botanika bog'ida ko'paytirilayotganligi haqida ham ma'lumot berilgan. Turlarining muhofazaga kiritilishiga sabab tog' etaklarining qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtirilishi va chorva mollarining ko'plab boqilishi va bundan tashqari, o'simliklarning kichik maydonlarda o'sish sharoitiga moslashmaganligi sabab bo'lganligi aniqlandi. Bu o'simliklar maxsus bir ximoyalalanish chora- tadbirlariga ega emas. Shuning uchun biz insonlar noyob va kamayib borayotgan o'simlik turlarini himoya qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. - B.140-145.
2. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. - Toshkent: Chinor ENK, 2016. - B.120-133.
3. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. - B. 123-128.
4. Toshboyeva M.Q, Saloyeva A.S, Tojiboyev M.U. O'zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga (2009 va 2019) kiritilgan Brassicaceae oilasi vakillarining solishtirma taxlili // Новости образования: исследование в XXI веке. Vol.1. No.6. 2023.
5. Tojiboyev M.U, Saloyeva A.S, Toshboyeva M.Q, Isaqjonova O.A. The place and medicinal properties of certain species of the genus of Achillea in Uzbekistan plant coverage //European Scholar Journal. Vol.4 No.1. 2023.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

6. Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Polygonaceae oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)// JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 1, 2023.

7. Usmonov D.D, Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan Sutlamadoshlar oilasining solishtirma taxlili (2009 va 2019-yillar nashrlari misolida)// Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiya.



**Research Science and
Innovation House**

“MEHNATSEVARLIK” KONSEPTINI IFODALAYDIGAN O‘ZBEK VA
INGLIZ XALQ MAQOLLARIDA UCHRAYDIGAN LINGVISTIK
HODISALARNING XUSUSIYATLARI

Amirqulova Umida Normo‘minovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy tillar kafedrasini ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada “mehnatsevarlik” konseptini ifodalaydigan o‘zbek va ingliz xalq maqollarida uchraydigan ritm, takrorlash, parallelizm, annosans, alleteratsiya va ellipsis kabi lingvistik hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan va ularga maqollardan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatsevarlik, maqol, ritm, takrorlash, parallelizm, annosans, alleteratsiya, ellipsis, o‘xshatish, qiyoslash, qofiyadoshlik.

Maqollarning ma’no doirasi juda keng bo‘lgani uchun jamiyatning har bir sohasida qo‘llashimiz mumkin. Bu borada ingliz va o‘zbek xalq maqollari ma’no jihatdan ham, qo‘llanilish jihatidan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tilidagi maqollarni hajm jihatdan o‘rganib borish natijasida aynan mehnatsevarlik haqidagi maqollarning ko‘proq uchrashiga guvoh bo‘ldik. Buning ko‘plab sabablari bor. Misol uchun, mehnat qilib obro‘ topish, o‘z ehtiyojlarini qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o‘z isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo‘lish masalalariga ingliz va o‘zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o‘zbek va ingliz xalq maqollarida o‘z aksini topadi. “Mehnatsevarlik” konseptini ifodalaydigan o‘zbek va ingliz xalq maqollarining yana bir lingvistik xususiyati shundaki, ularda ritm, takrorlash, parallelizm, annosans, alletratsiya va ellipsis hodisalarini kuzatishimiz mumkin.

“*Tirishqoqning teshasi toshga mix qoqar*” maqoli bir komponentli maqol hisoblanadi va bu maqolda “*t*” undoshining takror qo‘llanilishi **alleteratsiya**, ya’ni o‘xshash undosh tovushlarning takror qo‘llanishiga misoldir. Maqol mazmuni shundan iboratki, tirishqoq, mehnatsevar va uddaburon kishi har qanday mushkul vazifani ham

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

uddalay olishi va ushalmaydigan orzularni ham ro'yobga chiqarish mumkin deya insonlarni mehnatsevarlikka undamoqda. “*Birni birov beradi, ko'pni – mehnat*” va “*Uloqqa bostirib bormasang, bosilib ketasan*” maqollarida “**b**” tovushi, “*Yuk ko'targanning yuzi yorug*” va “*Yuk ko'targan yuzaga chiqar*” maqollarida “**y**” tovushi, “*Tek turmagan to'q turar*” maqolida “**t**” undosh tovushlarining takror qo'llanilishi **alleteratsiyaga** misoldir.

Ingliz xalq maqollaridan biri “*Words and deeds aren't weighed in the same balance*” maqolida [**di:**] undosh tovushi, “*Many hands make light work*” maqolida [**em**] undosh tovushi, “*Never put off till tomorrow what you can do*” va “*Great talker are little doers*” maqollarida [**ti:**] undosh tovushi, “*Doing at all is worth doing well what is worth*” maqolida [**dʌblju:**] undosh tovushi, “*Six hours' sleep for a man, seven for a woman, and eight for a fool*” maqolida [**es**] va [**ef**] undosh tovushlari va “*A young idler, an old beggar*” maqolida [**dʒi:**] undosh tovushlarining takror qo'llanilishi **alleteratsiyaga** misoldir.

“*Ot oyog'idan topar, odam – qo'lidan*” maqoli ikki komponentli maqollar sirasiga kiradi va bu maqolda “**o**” tovushining takror qo'llanilishi **assonans**, ya'ni o'xshash unlilarning takror qo'llanilishi deyiladi. Maqol mazmunidan ma'lumki, odam o'z qo'llari yordamida mehnat qiladi va bu yerda “*ot*” so'zidan mehnatkash insonni tasvirlash uchun foydalanilgan.

Bundan tashqari, mehnatga doir “*Obro'ning onasi – mehnat, otasi – sa'yi-harakat*” va “*Ish bor yerda osh bor*” maqollarida “**o**” tovushi, “*Uxlagan uyqu olar, uxlamagan – yilqi*” maqolida “**u**” tovushi, “*Elning ko'rki – er bilan, erning ko'rki – ter bilan*” maqolida “**e**” tovushi va “*Ish ishtaha ochar, ishdan dangasa qochar*” maqolida “**i**” tovushlarining takror qo'llanilishi **assonansga** misol bo'ladi.

“*Eggs must endure the cackling of hens, he that would have*” va “*Elbow grease gives the best polish*” maqollarida [**i:**] unli tovushi, “*Make hay while the sun shines*” va “*Strike while the iron is hot*” maqollarida [**aɪ**] unli tovushlarining takror qo'llanilishi **assonansga** misoldir.

“*Yer – ona, Suv – ota, Mehnat – boylik*”. Bu maqol uch komponentli maqol hisoblanadi va unda **qiyoslash**, **o'xshatish** lingvistik hodisalari kuzatiladi. So'zimizning isboti sifatida maqolda zamin va tuproqni onaga, obihayot esa otaga hamda mehnat boylikka qiyoslanganini ko'rishimiz mumkin. Bu maqol orqali yerga ishlov berish, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanish katta daromad

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

manbayiga erishishga olib kelishi uqtirilgan va bu maqoldan shuni anglashimiz mumkinki, bizning ota-bobolarimiz qadim-qadimdan dehqonchilik ishlari bilan shugʻullanib hayot kechirishgan.

“*Mehnat qilding, xo‘p qilding, minnat qilding, yo‘q qilding*”. Bu maqol yuqorida ta’kidlaganimizdek, to‘rt komponentli maqol hisoblanadi va unda sabab-natija munosabatlari yuzaga chiqmoqda. Maqolda “*mehnat qilding*” va “*minnat qilding*” so‘zlari bir –biri bilan qofiyadoshlik hosil qilgan bo‘lsa, “*xo‘p qilding*” va “*yo‘q qilding*” so‘zlari bir-biriga qofiyadosh bo‘lib kelmoqda va maqolda ajoyib ritmik ohangdoshlik yaratmoqda hamda qofiyadosh so‘zlar yordami bilan maqolda **parallelizm** (yunoncha “*parallelos*” – yonma-yon boruvchi) hodisasi yuzaga kelmoqda [1].

Parallelizm hodisasi “*mehnatsevarlik*” konseptini ifodalagan boshqa bir qancha ikki komponentli maqollarda ham uchraydi. Jumladan, “*Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda*”, “*Daryo suvin bahor toshirar, odam qadrin mehnat oshirar*”, “*Ening ko‘rki – er bilan, erning ko‘rki – ter bilan*”, “*Halol ishla, halol tishla*”, “*Ishlagan yerni yashnatar, ishlamagan – qaqshatar*”, “*Ishchan tilagi – tong ota qolsa, erinchak tilagi – kun bota qolsa*”, “*Kishi bersa – ko‘rimli, mehnat bersa – to‘yimli*”, “*Mehnat tovoq to‘ldirar, minnat tomoq kuydirar*”, “*Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar*”[2] maqollarida parallelizm qofiyadoshlik asosida, ya’ni **ritm** yordamida hosil bo‘lmoqda. **Ritm** bu qofiyadosh so‘zlarning qo‘llanilishidir va quyidagi mehnatsevarlikka doir maqollarda ritmga duch kelamiz: “*No pain, no gain*” maqolida “*pain*” va “*gain*” so‘zlari, “*Work smarter, not harder*” maqolida “*smarter*” va “*harder*” so‘zlari, “*Work is our business, it’s success is God’s*” maqolida “*business*” va “*success*” so‘zlari, “*Deeds, not words*” maqolida “*deeds*” va “*words*” so‘zlari bir-biri bilan qofiyadosh bo‘lib kelgan va ajoyib ritm hosil qilgan.

Bundan tashqari, **parallelizm** hodisasi ingliz xalq maqollarda ham uchraydi, binobarin, maqolning birinchi va ikkinchi qismi bir-biriga qofiyadosh bo‘lib tushishidir. “*No pain, no gain*” maqolida so‘zlar to‘liq qofiyadoshlik hosil qilib, “*No bees, no honey; no work, no money*” maqolida esa “*no honey*” va “*no money*” so‘zlari, “*Six hour’s for a man, seven for a woman, and for a fool*” maqolida “*a man*” va “*a woman*” so‘zlari hamda “*Saying is one thing and doing another*” maqolida esa “*saying*” va “*doing*” so‘zlari o‘zaro qofiyadoshlik hosil qilib, **parallelizm**ni yuzaga chiqarmoqda.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

“No pain, no gain”, “No work, no money”, “No work, no pay” va “No bees, no honey; no work, no money” maqollarida “no” inkor yuklamasi, “Nothing seek, nothing find” maqolida “nothing” so‘zi, “Another day, another dollar” maqolida “another” so‘zi, “Business is business” maqolida “business” so‘zi, “Better to do well than to say well” maqolida “well” so‘zi, “Doing at all is worth doing well, what is worth”[3] maqolida “worth” so‘zi, “Handsome is that handsome does” maqolida “handsome” so‘zi, “He who works as a slave, eats as a king” maqolida “as” bog‘lovchisi va “Work like as a slave and eat like a gentleman” maqolida “like” bog‘lovchilari takror qo‘llanilib, **takrorlash** lingvistik hodisasini yuzaga chiqarmoqda.

“Terga botgan – zarga botar” yoki “Terga botgan – rohatga botar”[4] maqollari bir komponentli maqollar sirasiga kiradi. Bu maqolda ter to‘kib mehnat qilgan inson o‘ziga to‘q yashaydi, cho‘ntagida puli bo‘ladi va mehnati evaziga mo‘maygina daromadga ega bo‘ladi deya insonlarni mehnat qilishga chorlov bor. Bu maqolda qo‘llangan “botgan” va “botar” so‘zlari **takrorlash** (bir so‘zning takror qo‘llanilishi) ni hosil qilgan.

“Mehnat yerda qolmas, oltin – yo‘lda”. Bu maqol ikki komponentli maqollar sirasiga kiradi va bu maqolda ellipsis (gapdagi elementlardan birining tushib qolishi) lingvistik hodisasi mavjud. Maqolning birinchi qismidagi “qolmas” so‘zi ikkinchi qismda ham qatnashishi kerak edi: “Mehnat yerda qolmas, oltin yo‘lda qolmas”, ammo maqollardagi qisqalik va lo‘ndalik me‘yorlari hisobiga “qolmas” so‘zi tushirib qoldirilgan va **ellipsis** hodisasi yuzaga kelgan.

Ingliz xalq maqollaridan biri bo‘lgan “Work like an ant and you’ll eat sugar” maqoli aslida “You work like an ant and you’ll eat sugar”[5] bo‘lishi kerak, ammo maqolning birinchi qismida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan “you” olmoshining tushirib qoldirilishi maqolga badiiy bezak bergan va bu **ellipsis** hodisasiga misol bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, “mehnatsevarlik” konseptini ifodalaydigan o‘zbek va ingliz xalq maqollarida uchraydigan ritm, takrorlash, parallelizm, annosans, alletratsiya va ellipsis kabi lingvistik hodisalar maqollarning jozibadorligi, ohangdorligi va badiiy qiymatini yanada oshirib, maqollardan nutqda foydalanganda ularning ta’sirchanligini oshirishga faol xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Йўлдошев М., Ядгоров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, – 2007. – Б, 76.
2. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изохли луғати. Т., 1990. – 45 б.
3. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar–Пословицы. – Т.: Mehnat, 2000. – 165 b.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Т.:Sharq, 2005,–508 b.
5. Mohammed Attia. 2004. “Common English Proverbs”. [E-Books](#).



Research Science and
Innovation House

Sportchi talabalarda musobaqa oldi jarayonlaridagi psixoemotsional holatlar

Allayarov Dilshodbek Raximboy o'g'li

“Ma'mun universiteti” NTM rektor yordamchisi

E-mail:dilshodallayarov778@gmail.com

ORCID:0009-0006-5371-5810

Mamlakatimizda aholining ayniqsa, kelajak vorislari bo'lgan yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun amalga oshirilayotgan ishlarning salmog'i va samarasini ko'rish mumkin. “Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va murabbiylar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud. Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama etuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (selektsiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish kerak”¹.

Jismoniy rivojlanishni baholovchi indekslarning yuqori o'zgaruvchanligi talabalarning jismoniy holatidagi sezilarli farqlarni ko'rsatib beradi. Talabalarning jismoniy rivojlanish va funktsional moslashuvchanlik ko'rsatkichlarini o'z-o'zini baholashda ishtirok etishi ularning sog'lig'iga tanqidiy munosabatda bo'lishiga olib keladi, bu jismoniy tarbiyaga ongli ehtiyojning shakllanishida o'z aksini topadi. Shu bilan birga, ba'zi talabalarda past ko'rsatkichlar o'quvchilarning jismoniy faolligining yetarli emasligi natijasi ekanligini tushuntirib beradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тзғрисида» 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон Фармони.

Sifatli ta'lim va o'qituvchining hayotiy faoliyati bugungi kunda ta'limning barqaror rivojlanishi uchun kelajakka investitsiya qilinishi kerak bo'lgan inson resurslaridir. Ta'limning barqaror rivojlanishi shartlaridan biri ta'lim sifatidir (Xart, 1997). O'quvchilarning kognitiv faolligi ularning o'rganish istagi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahorati va o'quvchilarni yangi narsalarni o'rganishga undash qobiliyati bilan belgilanadi. O'qituvchilarning pedagogik va uslubiy malakasi yuqori bo'lishiga qaramay, o'quvchilarning bilimlarni sifatli o'zlashtirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Sifatli ta'lim va o'qituvchining hayotiy faoliyati bugungi kunda ta'limning barqaror rivojlanishi uchun kelajakka investitsiya qilinishi kerak bo'lgan inson resurslaridir. Ta'limning barqaror rivojlanishi shartlaridan biri ta'lim sifatidir (Xart, 1997). O'quvchilarning kognitiv faolligi ularning o'rganish istagi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahorati va o'quvchilarni yangi narsalarni o'rganishga undash qobiliyati bilan belgilanadi. O'qituvchilarning pedagogik va uslubiy malakasi yuqori bo'lishiga qaramay, o'quvchilarning bilimlarni sifatli o'zlashtirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Talabalar jismoniy faollikning sezilarli darajada pasayishi natijasida harakatsiz turmush tarzining salbiy oqibatlariga e'tibor bermaydilar.

Talabalarning kognitiv faolligi o'qituvchining kasbiy faoliyati motivatsiyasi tarkibidagi motivlar ierarxiyasi (Heckhausen & Heckhausen, 2010) va uning shaxsiyat turini shakllantiradigan individual psixologik o'ziga xosliklari (Obozov va Shchyokin, 2008) bilan belgilanadi. Gumanistik tendentsiya vakili N.Obozov (1997) tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning uch komponentli tuzilishi insonning xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini va uning shaxs tipini aniqlash imkonini beradi: hissiy-kommunikativ, tartibga soluvchi ishbilarmonlik va intellektual-kognitiv.

Insonning hayotiy faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish va motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari shaxsiyatning tipologik o'ziga xosligini saqlab qoladi yoki darajaga keltiradi, bu esa o'zini o'zi amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Kasbiy faoliyat motivatsiyasi tuzilmasidagi motivlar ierarxiyasi ko'pincha jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi va uning a'zolarining asosiy ehtiyojlari va meta-ehtiyojlarini qondirish bilan belgilanadi. Kasbiy o'sish va o'zini o'zi anglash motivlari bilan bog'liq bo'lgan meta-ehtiyojlarni qondirish zarurati faqat asosiy ehtiyojlar qondirilganda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чоратadbirlари туғрисида» 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон Фармони.

2. E.A. Aleksandrova, Individual ta'lim traektoriyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda o'rta maktab o'quvchilarini pedagogik qo'llab-quvvatlash: dis. ... Doktor ped. Fanlar. Tyumen, 7 (2006).

3. A.V. Zolotareva, E.N. Lekomtseva, A.L.Pikin, Iqtidorli bolaga repetitor yordami: bakalavriat va magistratura dasturlari uchun darslik. 2-nashr, Rev. va qo'shimcha. Moskva, Yurayt (2018).

4. M. Kunash, Talabaning individual ta'lim yo'nalishi: metodik konstruktor, modellar, tahlil. Volgograd, o'qituvchi (2013).

5. A. Kremneva, Iqtidorlilik belgilariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishining modellarini loyihalash, Fan va maktab, 4, 205-210 (2019).

6. A. Gretsov, O'zingni bil: o'smirlar uchun psixologik testlar, SPb. va boshqalar: Sankt-Peterburg, Peter Press, 205 (2006).

7. E P. Ilyin, Wil psixologiyasi, 2-nashr, Sankt-Peterburg, Peter, (2009).

8. S. D. Nekrasov, Shaxsiy xususiyatlar: "Psixologiya" (bakalavr) yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv amaliyoti uchun tavsiyalar. Krasnodar: Kuban davlat universiteti, 49-51 (2018).

9. A. Rean, Psixologiya va shaxsiyat psixodiagnostikasi: nazariya, usullar, tadqiqot., Seminar: amaliy psixologning arsenali, Sankt-Peterburg, PrimeEvroznak (2006).

10. [SPORTCHI TALABALARDA KECHADIGAN RUHIY TUSHKUNLIK HOLATINI MUHIM JIHLARINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI](#)

AD Raximboy o'g'li - INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH ..., 2023

11. [CREATIVITY IS THE KEY OF PROBLEM SOLVING AND INNOVATION](#)
ZD Ruzmetova - Innovative Development in Educational Activities, 2024

12. "TEMURBEKLAR MAKTABI" LARIDA INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOYIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH
SB Shanazarovna - современное образование (Узбекистон). 2021

**KOGNITIV FUNKSIYALARNING IDROK, XOTIRA, O'RGANISH,
DIQQAT, QAROR QABUL QILISH VA TILLARNI O'RGANISHDAGI ROLI**

Ruzmetova Zilola Dilmuradovna

Ma'mun Universiteti “Roman-German” kafedrası o'qituvchi

zilola.ruzmetova111@gmail.com

ORCID 0009-0000-5969-3946

Sifatli ta'lim va o'qituvchining hayotiy faoliyati bugungi kunda ta'limning barqaror rivojlanishi uchun kelajakka investitsiya qilinishi kerak bo'lgan inson resurslaridir. Ta'limning barqaror rivojlanishi shartlaridan biri ta'lim sifatidir (Xart, 1997). O'quvchilarning kognitiv faolligi ularning o'rganish istagi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahorati va o'quvchilarni yangi narsalarni o'rganishga undash qobiliyati bilan belgilanadi. O'qituvchilarning pedagogik va uslubiy malakasi yuqori bo'lishiga qaramay, o'quvchilarning bilimlarni sifatli o'zlashtirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Kognitiv psixologiya ma'lumotni qayta ishlash, diqqat, tildan foydalanish, xotira, idrok etish, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va fikrlash kabi individual darajadagi aqliy jarayonlarni o'rganish sifatida belgilanadi (Gerrig va Zimbardo 2002). Kognitiv funktsiya keng atama bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish, ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish va fikr yuritish bilan bog'liq aqliy jarayonlarni anglatadi. Kognitiv funktsiyalarga idrok, xotira, o'rganish, diqqat, qaror qabul qilish va til qobiliyatlari kiradi. Axborotni to'g'ri qayta ishlashga uchta omil ta'sir qiladi. Birinchisi, vaqt: stress va qayta ishlashga muhtoj bo'lgan yuqori darajadagi ma'lumotlar diqqat va aniqlikni zaiflashtiradi (Hastie, 1981). Ikkinchidan, qobiliyat: shaxslar mos kelmaydigan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun aqliy qobiliyatni talab qiladi (Fiske, Kinder va Larter 1983). Uchinchidan, motivatsiya: status-kvoni saqlab qolishdan ko'ra aniqlikka bo'lgan individual imtiyozlar turli xil xatti-harakatlar natijalariga olib keladi (Kroker va boshq. 1984).

Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnat faoliyati davomida shakllanadi va rivojlanib boradi. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan aniqlab, ma'lum qarorga kelishda hamda bu

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi. Inson irodasining qay darajada rivojlanganligi maqsadni qanday ro‘yobga chiqarishida ko‘rinadi. Irodaviy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to‘siqlarga duch keladi. Ichki to‘siqlar kishining o‘ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yenga olishi, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati ichki iroda, deb ataladi. Tashqi to‘siqlar tevarakatrofdagi voqelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to‘siqlarni yenga olish layoqati tashqi iroda, deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to‘siqlarni yengish (tashqi iroda) ichki to‘siqlar (ichki iroda) ni yengish bilan uzviy bog‘liq.

Aytishimiz mumkinki, talabalarning kognitiv faolligi o‘qituvchining kasbiy faoliyati motivatsiyasi tarkibidagi motivlar ierarxiyasi (Heckhausen & Heckhausen, 2010) va uning shaxsiyat turini shakllantiradigan individual psixologik o‘ziga xosliklari bilan belgilanadi. N.Obozov (1997) tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning uch komponentli tuzilishi insonning xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning shaxs tipini aniqlash imkonini beradi: hissiy-kommunikativ, tartibga soluvchi ishbilarmonlik va intellektual-kognitiv.

Barqaror rivojlanish - bu insonning hayotiy faoliyati uchun sifat asosini tashkil etuvchi o‘zini o‘zi ta‘minlaydigan va uzluksiz rivojlanishdir. Insonning hayotiy faoliyati sifati uning meta-ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq. Barqaror rivojlanish shaxsiy va kasbiy o‘zish ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, insonning ichki salohiyati va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Insonning sifatli hayotiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan barqaror rivojlanish resurslardan foydalanish va saqlashga, ya‘ni shaxsning ichki salohiyatini va uning o‘ziga xos tabiatini saqlashga asoslanadi (Corcoran & Wals, 1999). Shunday ekan, ta‘limga investitsiyalar barqaror rivojlanish ko‘rsatkichidir.

Koks S. buyuk odamlar nafaqat yutuqlari, balki shaxsiy xususiyatlari bilan ham mashhur bo‘lganligini aniqladi. Olim uchta xususiyatga e‘tibor qaratdi: motivlar va sa‘y-harakatlarning barqarorligi, o‘z qobiliyatiga ishonch, xarakterning mustahkamligi (A. Kurt Xeller, 2002).

Samarali pedagogik yordamni tashkil qilish uchun individual ta‘lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish kerak. O‘tkazilgan tadqiqot asosida individual yo‘nalishlarni loyihalash va amalga oshirish orqali talabalarga hamrohlik qilish bo‘yicha eksperimental ishlardan so‘ng, shaxsiy fazilatlar (maqsadlilik va iroda) rivojlanishining ijobiy dinamikasi haqida aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Kurt Xeller va boshqalar. (tahrir). Iqtidor va iste'dod bo'yicha xalqaro qo'llanma, 2. ed. (Rev. repr.). Amsterdam [va hokazo], Elsevier, XV, 11 (2002).
2. Fiske, S.T., Kinder, D.R., & Larter, WM. The novice and the expert: Knowledge-based strategies in political cognition, (1983).
3. R. Hastie, Schematic principles in human memory, (1981).
4. Heckhausen, J., Heckhausen, H., Motivation und Handeln: Einführung und Überblick, (2010).
5. P.B. Korkoran, Aryen E.J. Wals, Oliy ta'lim va barqarorlik muammosi. Muammolar, va'da va amaliyot, (1999)
6. [SPORTCHI TALABALARDA KECHADIGAN RUHIY TUSHKUNLIK HOLATINI MUHIM JIHATLARINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI](#)
7. AD Raximboy o'g'li - INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH ..., 2023
8. [CREATIVITY IS THE KEY OF PROBLEM SOLVING AND INNOVATION](#)
ZD Ruzmetova - Innovative Development in Educational Activities, 2024
9. ."TEMURBEKLAR MAKTABI" LARIDA INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH SB Shanazarovna-sovremennoe obrazovanie (Uzbekiston).2021

Research Science and
Innovation House

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan begona o‘tlar-Boraginaceae
oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Toshmatova Gulyora Muxitdin qizi
toshmatovagulyora24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ning 4-nashri (2009) va 6-nashri (2019)ga kiritilgan G‘ovzabondoshlar oilasining solishtirma tahlili keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qizil Kitob, g‘ovzabondoshlar oilasi, kamyoblik darajasi, endemik turlar, relict turlar, sistematika.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ рода Говзабондош, включенного в 4-е (2009 г.) и 6-е издания (2019 г.) «Красной книги» Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Кизил Китаб, семейство говзабонов, уровень редкости, эндемичные виды, реликтовые виды, систематика.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the Govzabondosh family included in the 4th edition (2009) and 6th edition (2019) of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

Key words: Kizil Kitob, family of govzabons, level of rarity, endemic species, relict species, systematics.

O‘zbekistonda “Qizil kitob” ilk bor 1979-yilda ta‘sis etilgan. Mazkur qizil kitobga nabodot olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida ma‘lumot kiritilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad, jamoatchilik va davlat idoralari e‘tiborini tabiat muhofazasi masalariga jalb etishdan va turlar genofondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat edi.

“Qizil kitob”ning 1984-yilgi nashriga O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilgan 163 ta tur kiritilgan. Bu turlarning taqdiri bilan Respublika mutahassislari, olimlari muttasil shug‘ullanib kelmoqda. O‘tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o‘simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganini ko‘rsatmoqda.

Bir qancha izlanishlar natijasida yana 138ta tur qo‘shilishi aniqlandi. 1998-yilga kelib, “Qizil kitob”ga kiritilgan turlar soni 301 taga yetdi. 2006-yil 325 tur, 2009-yil 326 tur, 2016-yil 313 tur va 2019-yil 314 tur “Qizil kitob”ga kiritilgan.

G‘ovzabondoshlar oilasining ikkinchi nomi kampircho‘pondoshlar oilasi deb ham yuritiladi. Ular Samarqand, Buxoro hududlarida donli ekinlar bilan birga o‘sadi. Uning vakili Kampircho‘pon (*Trichodesma incanum*) begona o‘t sifatida o‘sadi. Bo‘yi 30-100 sm gacha boradi. O‘simlikning hamma qismlari kumushsimon oq tuklar bilan qoplangan. Barglarining ham hamma qismi kumushsimon oq tuklar bilan qoplangan, seret tuxumsimon, poyada juft-juft qarama-qarshi joylashgan hisoblanadi. Poyasining pastki qismi yog‘ochlashib ketgan.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

Barglarining chetlari tekis, cho'ziq nishtarsimon, uchi o'tkir, oldingi va orqa tomoni tuk bilan qoplangan. Barglarining uzunligi 3-8 sm, eni 1.3-2.5 sm.

Samarqand, Buxoro, O'rta Osiyo, Shimoliy Eron, Qozog'iston va O'zbekistondagi dengiz sathidan 400-1100 metr balandlikdagi lalmikor yerlarning hammasida o'sishga moslashgan begona o't hisoblanadi. Kampirchopon zaharli o'simlik hisoblanib urug'ida 2.7% gacha, barg va poyasida 1.5 % gacha alkaloidlar ya'ni zaxar saqlaydi. Tarkibida glikozidlar, organik kislatalar, moylar, filiks kislatalar, zaxarli sinil, alkaloidlar ya'ni zaxar mavjud hisoblanib. Ma'lum miqdorda tibbiyotda ham ishlatishilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yildagi nashri bo'yicha G'ovzabondoshlar oilasi vakillari haqida ma'lumot. (1-jadval)

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli			O'sish holati		O'sish joyi			
	0	1	2	3	Bir yillik	Ikki yillik	Ko'p yillik	Ta biy	Mada niy	Adir	Tog'	Yay lov	Cho'l
7	1	1	5	0	4	1	2	7	0	2	4	0	2

O'simliklar maqomi bo'yicha taqqoslaydigan bo'lsak, 2 maqom (kamyob turlar) ustunlik qiladi. Ya'ni jami 7 turdan 5 tasi 2-status, 1 ta 0-maqom, 1 ta 1- maqom. Bu o'simliklar madaniylashtirilganligi haqida ma'lumot yo'q. Barchasi tabiiy holda o'sadi. O'sish joyi jihatidan sonlar hisobga olinsa jami turlardan oshib ketishi mumkin. Ammo, Boshmaldoqsimon noneya ham adir ham cho'lli joylarda tarqalganligini inobatga olish lozim.

Ushbu 7 ta tur 2009-2019- yillar uchun umumiy hisoblanadi.

Tur nomi	O'zbekcha	Lotincha	Ruscha
1.	Mayda moviygul	Lappula parvula	Липучка мелкая
2.	Nurota moviyguli	Lappula nurativica	Липучка нуратинская
3.	Oqtog' moviyguli	Lappula aktaviensis	Липучка актуаская
4.	Yirik xalqagulli tangabarg	Rindera fornicata	Риндера крупносводиковая
5.	Buxoro g'ichmolasi	Heliotropium bucharicum	Гелиотроп Бухарский

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

6.	Yirik ildizli mehriyoh	Onosma macrorhiza	Оносма крупнокорневая
7.	Boshmaldoqsimon noneya	Nonea calceolaris	Ноңея башмачковидная

Bu o’simliklar kamyob endemik o’simliklar hisoblanadi. O’simliklar soni kamayib ketishiga yerlarning o’zlashtirilishi, ko’plab chorva mollarining boqilishi sabab bo’lgan. Madaniylashtirilish borasida bir necha bor harakat qilingan. Ammo samara bermagan. Ularning hammasi urug’idan ko’payadi. Ushbu o’simliklar tog’larda, cho’llarda, adirliklarda, qoldiq tog’larda, qoyatoshlarda o’sishga moslashgan.

O’zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2019-yildagi nashri bo’yicha G’ovzabondoshlar oilasi vakillari haqida ma’lumot. (2-jadval)

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli			O’sish holati		O’sish joyi			
	0	1	2	3	Bir yillik	Ikki yillik	Ko’p yillik	Tabiiy	Madaniy	Adir	Tog’	Yaylov	Cho’l
7	0	4	3	0	4	1	2	7	0	2	4	0	2

2019-yil “Qizil kitob”ida 1- maqomga 4 ta vakil, 2-maqomga 3 ta tur kiritilgan. Bir yillik o’simliklar 4 tani, ikki yillik o’simliklarga 1 ta, ko’p yillik o’simliklarga 2 ta kiritilgan. Bularning hammasi tabiiy holda o’sadi. Madaniylashtirilgan vakillari yo’q.

O’simlik o’z kamyoblik darajasini u yoki bu tomonga o’zgartirib turishi ya’ni vaqt o’tishi bilan butunlay yo’qolishi yoki ko’payib muxofaza qilish darajasidan chiqib ketishi mumkin. O’simlik dunyosini muxofaza qilishda keng omma ishtirok etgan taqdirda ijobiy natijalar beradi. Shundagina biz kelgusi avlodlar uchun nabobot olamini bebaho boyligini saqlab qolgan bo’lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. Bet140-145.
2. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. Bet 123-128.
3. Toshboyeva M.Q, Saloyeva A.S, Tojiboyev M.U. O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga (2009 va 2019) kiritilgan Brassicaceae oilasi vakillarining solishtirma taxlili //Новости образования: исследование в XXI веке. Vol.1. No.6. 2023.
4. Tojiboyev M.U, Saloyeva A.S, Toshboyeva M.Q, Isaqjonova O.A. The place and medicinal properties of certain species of the genus of Achillea in Uzbekistan plant coverage //European Scholar Journal. Vol.4 No.1. 2023.
5. Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Polygonaceae oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)// journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali volume 1, issue 1, 2023.
6. Usmonov D.D, Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan Sutlamadoshlar oilasining solishtirma taxlili (2009 va 2019-yillar nashrlari misolida)// Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiya.
7. Abdullayev S.M, Zayniddinova F.Sh, Menglimanamatova R.R. Kampirchopon (Trichodesma incanum) o'simligining tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati// Новости образования: исследование в XXI веке. Vol.1. No.3. 2022.
8. **Toshmatova G.M, Tojiboyev M.U. O'zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga (2009 va 2019) kiritilgan Limoniaceae oilasi vakillarining solishtirma tahlili// conference of natural and applied sciences in scientific innovative research” issue 7. July 2024**

**Research Science and
Innovation House**

**O‘zbekiston Respublikasida tarqalgan Gulxayridoshlar oilasi, turkumi
begona o‘tlar sifatida tarqalgan vakillarining dorivorlik xususiyati**

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Toshmatova Gulyora Muxitdin qizi**
toshmatovagulyora24@gmail.com

Annotatsiya: Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi bor. 10mingdan ortiq turni farmokologik, kimyoviy, dorivorlik xususiyati o‘rganilgan. O‘zbekistonda 577 turi mavjud. Shulardan 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Gulxayridoshlar oilasining vakillari (*Althaea officinalis* va *Malva L.*) ham dorivorlik xususiyatiga ega.

Kalit so‘zlar: Gulxayridoshlar, *Althaea officinalis*, moy, kraxmal, pektin, *Malva L.*, dorivorlik xususiyati

Аннотация: На земле насчитывается 10-12 тысяч видов лекарственных растений. Более 10 000 видов были изучены на предмет их фармакологических, химических и лечебных свойств. В Узбекистане 577 видов. 250 из них используются в научной медицине. Лечебными свойствами обладают и представители семейства тутовых (*Althaea officinalis* и *Malva L.*).

Ключевые слова: Гульхаридош, алтей лекарственный, масло, крахмал, пектин, мальва Л, лечебные свойства.

Abstract: There are 10-12 thousand species of medicinal plants on earth. More than 10,000 species have been studied for their pharmacological, chemical and medicinal properties. There are 577 species in Uzbekistan. 250 of them are used in scientific medicine. The members of the family of mulberry trees (*Althaea officinalis* and *Malva L.*) also have medicinal properties.

Key words: Gulkharidosh, *Althaea officinalis*, oil, starch, pectin, *Malva L.*, medicinal properties

Bu oilaga asosan tropik, qisman mo‘tadil iqlimli mintaqalarda tarqalgan 70 turkumga mansub 900 o‘simlik turi kiradi. Gulxayri (*Althaea*) — gulxayridoshlarga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar turkumi. Yevropa va Osiyoning o‘rta mintaqalarida 12 turi o‘sadi. Rossiya va Kavkazning o‘rmon va cho‘l zonalarida ham uchraydi. O‘zbekistonda gulning bitta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor.

Gulxayridoshlarga, asosan o'tlar, qisman butalar va daraxtlar kiradi. Gulxayridoshlar to'qaylarda, sug'oriladigan maydonlarda va boshqa yerlarda uchraydi. Ildizi o'q ildiz tizimli. Poyasi asosan tik. Barglari oddiy, yonbargli, uzun bandli, panjasimon tomirli, butun yoki o'yilgan, ko'pincha panjasimon bo'lakli. Gullari to'g'ri, ikki jinsli barg qo'ltig'ida yakka yoki shoxlar uchidagi to'pgulda joylashgan. Gulkosachasi 5 ta gulkosa bargning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Ko'pchilik vakillarida kosacha ikki qavatli. Ostki gulkosacha erkin holdagi yoki qo'shilgan gulbargchalardan tashkil topgan. Gultojbarglari 5 ta, erkin. Changchilari ko'p, iplari bir-biri bilan qo'shib, urug'chini o'rab turadi. Urug'chisi bitta, uch yoki undan ko'p urug'chibarglarning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Mevasi 3-5 uyli ko'sak yoki juda ko'p bir urug'li mevachalarga bo'linadigan yig'ma meva. Barglari 3-7 bo'lakli, uzun bandli. Gullari yakka-yakka yoki 2-3 tadan barg qo'ltig'ida va poya ichida o'rnashgan. Tojibarglari



Malva sylvestris

qat-qat joylashgan. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug'laydi. Tojibarglaridan vino, sirka va rang berishda hamda teri, shoyi va jun kabilarni bo'yashda foydalaniladi.

Daryo va ko'llar sohilidagi to'qaylarda, sernam yerlarda dorivor gulxayri o'sadi. U gulxayri turkumiga oid, bo'yi 70-150 sm keladigan ko'p yillik o't. Gulxayrining *Althaea officinalis* turi dorivor o'simlik sifatida tibbiyotda foydalaniladi. Uning ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt nafas yo'llari kasalliklarida (ayniqsa bolalarda) balg'am ko'chirish va yallig'lanishga qarshi, me'da-ichak kasalliklarida esa o'rab

oluvchi dori sifatida ishlatiladi. Tomoq, bodomsimon bez, yumshoq tanglay, bronxial astma, buyrak kasalliklari bezovta qilganda foydalaniladi. Ildizining o'ziga xos hidi va mazasi bor. Tarkibida shilliq moddalar, asparagin, moy, saharoza, kraxmal va pektin bor. Ildizning qaynatmasini tayyorlab olib, temir yoki shisha idishda 3 yildan ortiq saqlash lozim. Shunda samarasi yaxshi kuzatiladi. (1-rasm)



Gulxayridoshlarning ko'p tarqalgan vakillaridan yana biri yerbag'ir tugmachaguldir (Malva L). U bo'yi 10-40 sm keladigan, bir yillik begona o't. (2-rasm). G'arbiy Yevropa, Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy va Shimoliy Afrikada o'sadi. O'zbekistonda tugmachagulning bir necha turi: befarq tugmachagul (M. neglecta Wall.), Mavritaniya tugmachaguli (M.mauritana L.), o'rmon tugmachaguli (M. silvestris L), buxoro tugmachaguli (M. bucharica Iljin.) uchraydi. Uni barcha sug'oriladigan yerlarda, ariqlar bo'yida va ekinlar orasida uchratish mumkin. Poyasi sershox, yer bag'irlab yoki yonboshlab o'sadi. Barglari uzun bandli, yaprog'i deyarli yumaloq, cheti 5-7 ga bo'lingan. Gullari barg qo'ltig'ida o'rnashgan. Gultojbarlari 5 ta, erkin, gulkosachabarglarga nisbatan 2 marta uzun. Changchilari ko'p, iplari birikkan, urug'chini o'rab turadi. Yerbag'ir tugmachagul apreldan sentabrgacha gullaydi. Mevasi quruq meva, tugmachasimon, dumaloq, tuklar bilan qoplangan, 12-16 ta mevachadan tashkil topgan yig'ma meva. Apreldan oktabrgacha gullab mevalaydi. Bir tup tugmachagul yiliga 300-500 dona urug' beradi. Bargi Kavkazda ovqatga ishlatiladi. Tugmachagulning quritilgan bargi, guli va urug'i xalq tabobatida ichni yumshatuvchi dori sifatida ishlatiladi. (2-rasm)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'.Axmedmedov. A.Ergashev. A.Abzalov, M. Yulchiyeva, D.Mustafakulov// DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI// darslik, Toshkent-2020.
2. O'.Pratov, Q.Jumayev. Yuksak o'simliklar sistematikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent 2003.
3. M.U.Tojiboyev, G.M.Toshmatova. O'ZBEKISTONDA TARQALGAN BEGONA O'TLAR QOPLAMI, ULARNING TIPLARI, TARQALISHI, AHAMIYATI// maktabgacha va maktab ta'limidagi o'zgarishlar: huquqiy asoslar, muammo va yechimlar, xorijiy tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
4. S.B.Asqatova, I.E.Mamatqulova DORIVOR GULXAYRI- ALTHAEA OFFICINALIS BOTANIK TASNIFI AGROTEXNOLOGIYASI// international multidisciplinary conference of modern scientific research
web: <http://journal.jbnuu.uz/>

Research Science and
Innovation House

XORAZM ZARGARLIK BUYUMLLARIDA RAMZLAR

Bakdurdıyeva Qunduz Quvondiq qizi
Ma'mun universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi
g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm an'anaviy zargarlik buyumlariga oid qimmatli ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, o'rganilayotgan materiallar o'ziga xosligidan kelib chiqib metodologik asosi ta'minlangan va strukturaviy yondashuv asosida tarixiy, etnografik va san'atshunoslikka oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy-taqqosiy metodlar orqali Xorazm vohasi an'anaviy taqinchoqlari va ularning ma'noxususiyatlari yozma manbalar, etnografik materiallar va arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: uzuk, bilakuzuk, muhr uzuk, nigin, angushtarin, gavhar, yoqut, dur, firuza, serdolik, granat, yoqut, la'l, beril, nefrit, yashma, lazurit, rajabiy uzuk, hotam uzuk.

ХОРАЗМСКИЕ ТРАДИЦИОННЫЕ ЮВЕЛИРНЫЕ ИЗДЕЛИЯ (ПРИМЕР РУЧНЫХ УКРАШЕНИЙ)

Бакдурдыева Кундуз Кувондик кизи
Преподаватель кафедры История Университет Мамуна
Электронная почта: yakubovakilara@gmail.com.

Аннотация: В статье освещены ценные сведения о традиционных украшениях Хорезма, дана методологическая основа, основанная на уникальности изученных материалов, а также приведены исторические, этнографические и искусствоведческие сведения на основе проанализированного структурного подхода. Также историко-сравнительным методами на основе письменных источников, этнографических материалов и архивных документов освещены традиционные украшения Хорезмского оазиса и их значения.

Ключевые слова: кольцо, браслет, перстень-печатка, нигин, ангуштарин, драгоценный камень, рубин, дур, бирюза, сердолик, гранат, рубин, немой, берилл, нефрит, яшма, лазурит, кольцо раджаби, кольцо хотам.

**KHORAZM TRADITIONAL JEWELRY
(EXAMPLE OF HAND JEWELRY)**

Bakdurdıyeva Kunduz Kuvondik's daughter
Teacher of the History Department of Mamun University
g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Abstract: This article highlights the valuable information about the traditional jewelry of Khorezm, provides a methodological basis based on the uniqueness of the studied materials, and provides historical, ethnographic, and art history information based on a structural approach. analyzed. Also, through historical and comparative methods, the traditional jewelry of the Khorezm oasis and their meanings are highlighted based on written sources, ethnographic materials and archival documents.

Key words: ring, bracelet, signet ring, nigin, angushtarin, gem, ruby, dur, turquoise, serdolik, garnet, ruby, mute, beryl, nephrite, jasper, lapis lazuli, rajabi ring, hotam ring.

Kirish va dolzarbligi: Xorazm zargarlik buyumlari o‘zining xususiyatiga ko‘ra ayollar va erkaklar uchun maxsus tayyorlanadi. Ayollar zargarlik buyumlari ko‘pchilikni tashkil qilib, ular asosan bosh, peshona, soch-popuk, quloq, bo‘yin, ko‘krak, bel, qo‘l, bilak, barmoq qismlaridagi alohida shakllarga ega bo‘ladi. Manbalarda yozilishicha, xonlik davrida ayollar taqinchog‘i eng ko‘p boshga taqilgan. Qo‘l va barmoqlarga esa uzuk va bilakuzuklar taqilgan. Erkaklar zargarlik buyumlari esa, bundan farqlidir. Bu buyumlar sirasiga xanjar, qilich tutqichlari, kamar naqshlari, turli xil tugmalar, sallaga taqiladigan to‘g‘nog‘ich (hukmdorlar uchun), turli xil uzuklarni (oddiy va muhrli) sanash mumkin.

Tadqiqot natijalari: Xorazm zargarlik san‘ati taraqqiyoti O‘rta Osiyo xalqlarining siyosiy va etnik tarixi, unga qo‘shni hududlar xalqlari tarixi bilan bog‘liqdir. Xalqlarning o‘zaro tinch yo‘l bilan bir-biriga yaqinlashuvi madaniyatlarni boyitgan, ular bir-birlari uchun yaqin, qadrli bo‘lgan narsalarni almashganlar, bora-bora bu har bir xalqning mahalliy san‘atiga singib ketib, o‘ziga xoslik va mustahkam an‘ana kasb etgan.

Biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan zargarlik buyumlaridan biri bilaguzuk ham shu tarzda rivojlangan. Bilaguzuklarning shakllari va bezaklarining xilma-xilligi lakonik ibtidoiy naqsh bilan bir oz teginish silliq yuzasiga ega bo‘lgan eng oddiy ochiq tor shakllardan tortib, tosh va shisha bilan ranglangan keng uzluksiz dabdabali naqshlarga qadar kengaydi. Bilakuzuklar qotishma va kumushdan yasalgan, ko‘pincha zarhal qilingan [1.1988.C.152].

Hunarmandlar tomonidan bilaguzukning *yapaloq bilakuzuk*, *bodomcha bilkuzuk*, *ilonbosh bilakuzuk*, *baqabosh bilakuzuk* va boshqa xillari yasalgan. Ulardan biri haqida Xiva davlat hujjatlarida “Arkka bir to‘qmoqli bilakuzuk oltindan tuzattirib berildi” – deb qayd etiladi [1.1988.C.269]. Qalin kumush bilakuzuklarga, asosan, aqiq, serdolik, feruza, yoqut toshlar bilan bezatilgan. Qayd etish lozimki, turkman ayollarining aksariyat taqinchoqlari kumushdan ishlanib, tilla suvi yuritilgan va serdolik (haqiq, aqiq) qadab bezalgan [2.1866.C.23].

Uzuklar yasalishi va bezatilishiga qarab bir qancha turlarga bo‘linadi. Ko‘zli uzuk (ko‘zi gavhar, yoqut, dur va boshqa qimmatbaho toshlar va shishadan yasalgan); ko‘zsiz uzuk (naqshli va naqshsiz); nikoh uzugi (odatda nikohdan so‘ng taqiladi); muhr uzuk (ko‘z o‘rnida muhr bo‘ladi) va boshqalar shular jumlasidandir.

Uzuklar alohida ibtidoiy kesma naqshli yoki o‘rtasida tosh ko‘z qadalgan Xorazm uzugi hozir ham mavjud va mashhur bo‘lib, u xalq orasida “qurbaqa uzuk” deb ataladi. “Erkakning uzugida – qurbaqa tasviri – boylik tilash timsoli” sifatida tavsiflangan [3.1937.C.122].

Uzuk va xalqlar tumor ma’nosini saqlab qolishda davom etgan. Ayniqsa, afsonaga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar Allohga ko‘tarilgan rajab oyida usta yasagan tosh qo‘yilmagan kumush “rajabiy” uzuklari hurmatga sazovor bo‘lgan. Ko‘pincha uni keksa odamlar buyurtma qilgan va taqqan, chunki bunday uzuk, odatga ko‘ra, marhumning barmoqlaridan olib tashlanmasligi va u bilan birga qabrga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan yagona uzuk bo‘lgan [4.1973.C.29]. Janubiy Xorazm o‘zbeklarida “tug‘ilgandan keyin doya bolani tuz, tuproq, tangalar yoki oltin va kumush uzuklar botirilgan suvga cho‘mdirgan – O‘rta Osiyo xalqlarida ular boylik, farovonlik, sog‘liq va baxtni ramzi bo‘lgan” [5.1981.C.120].

Dekorativ-amaliy san’atda “ko‘zcha”, “ko‘z” motivlari keng tarqalgan: buqa, bo‘taloq, baytal, chumchuq, bulbul va boshqa ko‘plab qushlar va hayvonlarning ko‘zi qadimdan “yomon ko‘z” ga qarshi tumor hisoblangan [1.1988.C.160].

Xiva zargarlari ko‘zsiz uzukka ko‘z o‘rniga naqshlar, ba‘zan egasining ismini yozib, ular muhr sifatida ishlatilgan uzukka aytiladi. Uzuklar xon va hukmdorlar uchun hokimiyat ramzi hisoblangan. Xivalik tarixnavis Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining “Shajarai Xorazmshohiy” asarida nigin, ya’ni podshohning *muhrlari uzugi* haqida eslatib o‘tadi [6.1991.C.191].

Muhr uzuklar yana “hotam uzuk” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, ular tilla va kumushdan yasalgan. Xorazm muhr uzuklarining ko‘pchiligi XIX asrga oid bo‘lib, ular xonning shaxsiy muhri, shu bilan birga ziynat vazifasini ham bajargan. Xorazmda hotam uzuklari yasash ayniqsa, XIX-XX asrlarda o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarilgan.

Turkiston Rossiyaga qo‘shib olingandan keyin ayrim mansabdor shaxslarning shaxsiy muhrlari davlat muhrlari bilan almashtirilgan. “Hozirgi vaqtda xalq sudyalari dalolatnomalarga shaxsiy muhr bosish huquqidan ham mahrum qilingan va ruscha yozuv bilan rasmiy muhrdan foydalanishadi. Turkiston o‘lkasi gerbidagi geraldik yakkashox tasviri tushirilgan ushbu muhrlar ham, sudyalarga berilgan rasmiy nishonlar ham, tirik mavjudot tasvirini kiyish musulmon dini aqidalariga zid ekanligini isbotlovchi xalq sudyalari yoqtirishmaydi” [7.1904.C.349].

Uzuk va xalqa qayerdan paydo bo‘lgan? Bu haqda ko‘plab afsonalar mavjud. “Kiyimga kashta tikib, barmog‘iga uzuk taqqan birinchi kishi Jamshid bo‘lgan. Undan: “Nega barcha zargarlik buyumlarini chap qo‘lingga berding, chunki ustunlik o‘ngga tegishli?” U aytdi: “O‘ng qo‘l to‘g‘ri bo‘lgani uchun yetarli darajada bezatilgan!” [8.1959.C.213]. Angushtarin – barmoq uchiga taqiladigan angishvona ko‘rinishidagi uzuk ham yasalgan [9.2001.C.115]. Angushtarinni ayollar ko‘rpa tikish, qavish chog‘ida taqqanlar. Uning qimmatbaho metallardan tayyorlanganlarini doim taqib yurganlar.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm zargarlik buyumlari nafaqat bezakdorligi, balki chiroyli shakllari, qadimiyliги hamda chuqur falsafiy, tarbiyaviy, ruhiy xususiyatlari bilan o‘zining yuksak qiymatiga egadir. Zargarlik hunarmandchilikning yorqin namunasi sifatida, unda estetik dunyo, diniy va dunyoviy tasavvurlar ham mustahkam o‘rin olgan. Ayniqsa, qo‘lga taqiladigan taqinchoqlar zargarlar tomonidan yuksak mahorat bilan ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Ўзбекистана. – Т., 1988. – С. 152
2. Гулибефа-де-Блоквил. Четырнадцатимесячный плен у туркменцев // Учёго-литературное прибавление к “Биржевым ведомостям”. 1866, № 6-7 (июнь-июль) – С. 23.
3. Григорьев Г. Тус-туппи. Искусство. 1937, № 1. – С 122
4. Литвинский Б. А. Украшения из могильников Западной Ферганы. - М., 1973. – С. 29.
5. Темпель Л. И. Далекое и близкое. Страницы жизни, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. - Ташкент, 1981. - С. 120
6. Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Мерос. – Тошкент, 1991. – Б. 191.
7. Шишов А. Сарты. Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области, т. XI. - Ташкент, 1904. – С. 349.
8. Саади М. Гулистан. - М., 1959. – С. 213.
9. Каталог хивинских казийских документов XIX – начала XX вв. 2001. Д. № 350. – С. 115.

Research Science and
Innovation House

ISLOMDA PEDAGOGIKA

ПЕДАГОГИКА В ИСЛАМЕ

PEDAGOGY IN ISLAM

Ro‘zmuhammedov Sardor Arslon o‘g‘li

Mir Arab Oliy madrasasi Quroni Karim va Tajvid kursi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dinining ta‘lim-tarbiya sohasiga qo‘shgan hissasi, Qur‘oni Karim va Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida ilm olish va o‘qitishning ahamiyati haqidagi fikrlar, shuningdek, islom olamida yetishib chiqqan buyuk allomalarning pedagogik qarashlari tahlil qilingan. Maqolada islom ta‘limotining asosiy tamoyillari, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlari, ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar kabi masalalar yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, islom ta‘limoti insonni har tomonlama yetuk, ma‘naviyatli, axloqli va bilimli bo‘lib voyaga yetishini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik g‘oyalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: islom, pedagogika, ta‘lim, tarbiya, ilm, Qur‘on, hadis, allomalar.

Аннотация: В данной статье анализируется вклад исламской религии в сферу образования, идеи о важности получения знаний и обучения в Коране и хадисах Пророка Мухаммада (мир ему), а также педагогические взгляды великих ученых, появившихся в исламском мире. В статье освещаются такие вопросы, как основные принципы исламского учения, взаимоотношения учителя и ученика, методы, используемые в процессе обучения. Результаты исследования показывают, что исламское учение выдвигает педагогические идеи, направленные на обеспечение всестороннего развития человека, формирование его духовности, нравственности и образованности.

Ключевые слова: ислам, педагогика, образование, воспитание, знание, Коран, хадис, ученые.

Abstract: This article analyzes the contribution of the Islamic religion to the field of education, the ideas about the importance of acquiring knowledge and teaching in the Quran and the hadiths of the Prophet Muhammad (peace be upon him), as well as the pedagogical views of great scholars who appeared in the Islamic world. The article highlights such issues as the basic principles of Islamic teaching, the relationship between teacher and student, and the methods used in the learning process. The research results show that Islamic teaching puts forward pedagogical ideas aimed at ensuring the comprehensive development of a person, the formation of his spirituality, morality, and education.

Keywords: Islam, pedagogy, education, upbringing, knowledge, Quran, hadith, scholars.

KIRISH

Islom ta'limoti insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan dinlardan biridir. U nafaqat diniy aqidalar, balki hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan, jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga ham katta e'tibor qaratadigan mukammal ta'limotdir. Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida ilm olish va o'qitishning ahamiyati, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari haqida ko'plab fikrlar keltirilgan. Shuningdek, islom olamida yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalarning asarlarida ham pedagogikaga oid qimmatli g'oyalari o'z aksini topgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida islom ta'limotidagi pedagogik g'oyalardan samarali foydalanish, ularni zamonaviy pedagogikaga tatbiq etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, mazkur tadqiqotda islom dinining pedagogikaga qo'shgan hissasi, uning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari atroflicha o'rganilgan.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy-tarixiy, mantiqiy va tizimli yondashuvlar qo'llanilgan. Maqolada islom ta'limotining pedagogikaga oid g'oyalari Qur'oni Karim va hadislar asosida o'rganilgan. Shuningdek, islom olamining yirik allomalari - Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus kabi mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari tahlil etilgan. Mavzu yuzasidan S.Niyozov, A.Zunnunov, M.Xayrullaev, N.Komilov, S.Olimov kabi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan.

Islom ta’limotida ta’lim-tarbiyaning o’rni masalasi bo’yicha Umar Sulaymanov, Shodmon Vohidov, Azamat Ziyoy kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim manba sanaladi [1; 5; 8]. Mazkur tadqiqotlarda islom dinining ilm olish va o’qitishga bo’lgan munosabati, islom manbalarida ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi kabi jihatlar ko’rib chiqilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko’ra, Qur’oni Karimda ilm va ma’rifat masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Qur’onda "Iqra'" ("O’qi'") so’zi bilan boshlanuvchi oyatlarning nozil bo’lishi ham ilm olishga bo’lgan d’vatning yorqin ifodasidir [2:96]. Qur’onda ilm egallagan kishilarning maqomi va martabasi ulug’lanadi: "... Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm berilgan zotlarni bir necha darajalar bilan yuksaltirur..." [3:11]. Shuningdek, Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislarida ham ilm olish har bir musulmon uchun farz ekanligi alohida ta’kidlanadi: "Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" [6:224].

Shuningdek, islom ta’limotida o’qituvchiga yuksak ehtirom ko’rsatiladi, unga hurmat bilan munosabatda bo’lish, uning ko’rsatmalariga amal qilish o’quvchining burchi sanaladi. Forobiy o’zining "Fozil odamlar shahri" asarida o’qituvchining xislatlari, unga qo’yiladigan talablar haqida batafsil to’xtalib o’tadi. Uning ta’kidlashicha, o’qituvchi o’z kasbining mohir ustasi, yuksak axloq egasi, dono va tadbirkor bo’lishi lozim [7]. Ibn Sino esa o’z asarlarida mudarrisning pedagogik mahorati, ayniqsa, uning o’quvchiga individual yondashishi muhimligini alohida ta’kidlaydi [9].

Islom ta’limotida ta’lim jarayoni muayyan tamoyillar asosida tashkil etilishi ko’rsatiladi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg’u bilig" asarida ta’lim-tarbiyada quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligi bayon etiladi: onglilik va tushunarlilik, ko’rsatmalilik, ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi, o’quvchiga xushmuomalalik bilan munosabatda bo’lish va boshqalar [4].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Yuqoridagi keltirilgan dalil va misollardan ko’rinib turibdiki, islom ta’limotida ilm olish va o’qitish masalasiga katta ahamiyat beriladi. Qur’on va hadislarda ko’rsatilgan ilm yo’lidagi sa’y-harakatlar islom olamining buyuk allomalari tomonidan o’zlari yashagan davrda amalda tatbiq etilgan. Ularning qarashlari va g’oyalari ta’lim sohasiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda islom ta’limotidagi pedagogik tamoyillarni zamonaviy ta’lim tizimiga joriy qilishda ba’zi muammolar ham mavjud. Jumladan, islom manbalarida ta’kidlangan ba’zi ta’lim-tarbiya usullarini hozirgi zamon ta’lim tizimiga tatbiq etish murakkab kechmoqda. Bu esa islom pedagogikasi va zamonaviy pedagogika o’rtasidagi o’zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, islom ta’limotidagi qimmatli g’oyalarni ta’lim tizimida qo’llash mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Islom ta’limoti insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan dinlardan biri bo’lib, ta’lim-tarbiya sohasiga katta e’tibor qaratgan. Qur’oni Karim va hadislarda ilm olish va o’qitishning ahamiyati, o’qituvchi va o’quvchining o’zaro munosabatlari haqida ko’plab fikrlar keltirilgan. Islom olamida yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham pedagogikaga oid qimmatli g’oyalar o’z aksini topgan.

Qur’oni Karimda ilm va ma’rifat masalasiga alohida e’tibor qaratilgani, ilm egallagan kishilarning maqomi va martabasi ulug’langani ta’lim-tarbiyaning islom dinidagi o’rnini ko’rsatadi. Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislarida ham ilm olish har bir musulmon uchun farz ekanligi alohida ta’kidlanadi. Bu esa islom ta’limotining asosiy maqsadlaridan biri insonni ma’naviy yetuk, barkamol, axloqli va bilimli inson bo’lib yetishishiga qaratilganini anglatadi.

Islom ta’limotida o’qituvchiga yuksak ehtirom ko’rsatiladi, unga hurmat bilan munosabatda bo’lish, uning ko’rsatmalariga amal qilish o’quvchining burchi sanaladi. Bu o’qituvchining jamiyatdagi nufuzi va mavqei oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o’qituvchining ham o’z kasbining mohir ustasi, yuksak axloq egasi, dono va tadbirkor bo’lishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu esa o’qituvchining shaxsiy va kasbiy takomillashuvi uchun muhim omil hisoblanadi.

Islom ta’limotida ta’lim jarayoni muayyan tamoyillar asosida tashkil etilishi ko’rsatiladi. Onglilik va tushunarlilik, ko’rsatmalilik, ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi, o’quvchiga xushmuomalalik bilan munosabatda bo’lish kabi qoidalar bugungi kun pedagogikasi uchun ham dolzarbligini yo’qotmagan. Ushbu tamoyillarning ta’lim jarayonida to’g’ri va samarali qo’llanilishi o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini oshirishga, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Tahlillarga ko’ra, islom ta’limotidagi pedagogik tamoyillar va g’oyalar ta’lim sohasiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Ularning aksariyati bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan va zamonaviy ta’limda qo’llanilishi mumkin. Shu bilan birga, islom pedagogikasi va zamonaviy pedagogika o’rtasidagi o’zaro hamkorlikni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

yanada mustahkamlash, islom ta'limotidagi qimmatli g'oyalarni ta'lim tizimida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Islom ta'limotining yana bir muhim jihati shundaki, unda ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi ta'kidlanadi. Ya'ni, yaxshi xulq-atvor va go'zal axloqni shakllantirish bilan birga, ilmiy bilimlarni egallash ham muhim sanaladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchining nafaqat aqliy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham kamol topishiga e'tibor qaratish lozimligini anglatadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, islom ta'limotidagi g'oyalarni zamonaviy ta'limga tatbiq etishda ba'zi muammolar ham mavjud. Misol uchun, ba'zi an'anaviy ta'lim usullari va tamoyillarini bugungi kundagi o'quv jarayoniga moslashtirish qiyin kechishi mumkin. Shuningdek, islom manbalarida ta'kidlangan ba'zi ta'lim-tarbiya usullarini hozirgi zamon ta'lim tizimiga joriy etishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa islom pedagogikasi va zamonaviy pedagogika o'rtasidagi mushtarak jihatlarni chuqur tadqiq etish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llarini izlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida islom ta'limotidagi g'oyalardan foydalanishda o'qituvchilarning pedagogik mahorati va bilim darajasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar islom manbalarida keltirilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni chuqur o'zlashtirgan, ularning mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lishi lozim. Shu bois, pedagoglarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularga islom pedagogikasi yo'nalishida maxsus kurslar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islom ta'limoti insonni ma'naviy yetuk, barkamol, axloqli va bilimli inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega. Qur'oni Karim va hadislarda zikr etilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar hamda islom olamida yetishib chiqqan allomalarning pedagogik qarashlari bugungi kun uchun ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda, islom dinining ta'lim-tarbiyaga oid an'ana va qadriyatlarini zamonaviy pedagogika bilan uyg'unlikda qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Islom ta'limotidagi pedagogik g'oyalar va tamoyillar bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ularni zamonaviy pedagogika yutuqlari bilan uyg'unlikda qo'llash, ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish muhim vazifalardan sanaladi. Shu bilan birga, bu borada islom pedagogikasi va zamonaviy pedagogika

o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, o‘zaro tajriba almashish va ilg‘or usullarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, islom ta‘limotining ta‘lim-tarbiyaga oid qadriyatlaridan oqilona foydalanish jamiyatimiz ravnaqi va yosh avlod kamoloti yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sulaymanov, U. (2022). Islomda ta‘lim-tarbiya masalalari. Toshkent: Movarounnahr.
2. Qur'oni Karim (2019). Alouddin Mansur tarjimasi. Toshkent: Sharq.
3. Qur'oni Karim (2019). Alouddin Mansur tarjimasi. Toshkent: Sharq.
4. Yusuf Xos Hojib (2019). Qutadg‘u bilig. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Vohidov, S. (2020). Hadislarda ta‘lim-tarbiya masalalari. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
6. Buxoriy, M. (2020). Al-Jome' as-sahih. Toshkent: Hilol nashr.
7. Forobiy, A.N. (2020). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Yangi asr avlodi.
8. Ziyo, A. (2018). Islom va ma‘rifat. Toshkent: Ma‘naviyat.
9. Ibn Sino, A.A. (2019). Tib qonunlari. Toshkent: Yangi asr avlodi.

**Research Science and
Innovation House**

Xorazm o‘tkazilgan qovun sayli

Gapparova Baxtigul Razzaqovna
Bog‘ot tumani ixtisoslashtirilgan maktabi
tarix fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston
gaffarovabaxtigul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi davrlardan boshlab Xorazmda o‘tkazilib kelinayotgan xalq sayillari, bayramlar, turli xil tadbirlar haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shu bilan birga bu sayllarning qay maqsadda o‘tkazilgani, shuningdek sayillar vaqtida qanday rasm-rusumlar bajarilgani, turli xil bayramlar va xalq sayillarining xalq hayotidagi ahamiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq sayillari, qovun sayli, maydonlar, urf-odatlar, marosimlar, rasm-rusumlar, an’analar, musobaqalar

Праздник дыни проходящее в Хорезмт
Гаппарова Бахтигуль Раззаковна
Боготская районная специализированная школа
учитель истории, Узбекистан
gaffarovabaxtigul@gmail.com

Аннотация: В данной статье собраны сведения о народных ярмарках, праздниках и различных мероприятиях, которые с древних времен проводились в Хорезме. При этом освещаются сведения о цели этих торжеств, а также о том, какие обряды совершались во время торжеств, о значении различных праздников и народных гуляний в жизни народа.

Ключевые слова: народные ярмарки, бахчевые ярмарки, поля, обычаи, обряды, росписи, традиции, состязания.

Melon festival taking place in the Khorezm

Gapparova Bakhtigul Razzakovna

Bogota Regional Specialized School

history teacher, Uzbekistan

gaffarovabaxtigul@gmail.com

Abstract: This article contains information about folk fairs, holidays and various events that have been held in Khorezm since ancient times. At the same time, information about the purpose of these celebrations is highlighted, as well as about what rituals were performed during the celebrations, about the significance of various holidays and folk festivals in the life of the people.

Key words: folk fairs, melon fairs, fields, customs, rituals, paintings, traditions, competitions.

Kirish. Xorazm vohasi eng qadimiy va mashxur qovunchilik vohalaridan biri bo‘lib, asosan qayir yerlarda yetishtirib bahorgacha saqlanadi. Bu yerda yashovchi aholi qovunni o‘zlarining odatiy ovqati deb hisoblaganlar, uni juda sevib iste‘mol qilganlar, shuning uchun ham uzoq safarga chiqqanlarida o‘zlari bilan ko‘proq qovun olib ketishga harakat qilganlar.

Xorazm qayir qovunlari qadimda uzoq mamlakatlarda ham mashxur bo‘lib, “Sharqda ham, G‘arbda ham Xorazm qovuniga teng keladigani yoq” [1] deb ta‘riflagan arab sayohi (XIV asr) oftobda quritilgan qovun bo‘laklarini Xorazmdan Hindiston hatto Xitoyning uzoq shaharlariga olib borib sotilgani haqida ma‘lumot bergan [2]. Bu qovunlar zardan ishlangan maxsus qog‘ozlarga o‘rab Bag‘dodga, arab xalifalari saroyiga ham olib ketilgan[3]. A.Jenkinson (XVI asr) Xorazmning qovun-tarvuzlarini qiziqish bilan tasvirlagan[4].

Xorazm vohasida qovunning turli navlari o‘sadi. Bular: Zamchi (Xandalaki): Zamcha, Duinak, Mahalliy sariq xandalak, Sari zamcha, Oq zamcha, Ola zamcha, Go‘k zamcha, Qora zamcha, Qizil zamcha, Urganji. Yumshoq pulpali yoz navlari: Amiri, Allaka, Xorazm aknovvoti, Oq gurvak, Ola gurvak, Ko‘k gurvak, Qora gurvak, Bosvoldi, Mullasapo. Yozgi zich pulpali navlari: Aknovvot, Ola kurtak, Garvuz qovun, Oksut, Olageke, Ko‘kcha, Jiydagul, Jiyda bargi, Nong‘osht, Torlama, Shakarpara, Shirinpochok [5]. Kuzgi-qishki navlari: Karrikiz, Qishki Borikalla,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Amudaryo, Oq atirgul, Olma guli, Olmurti atirgul, Zarg‘aldoq atirgul, Yashil go‘sh, Xorazm atirgul, Zar atirgul, Qora atirgul, Qizil atirgul va boshqalar[6].

Xorazm vohasi aholisi allaqachon polizi ekinlarining barcha urug'larini saqlab qolishgan va keyingi yil ularni yana ekib, yig'ib olishgan. Voha aholisi bir-biriga urug' almashishadi (Xorazmda qovunni tuxum deyishadi): “Menga qovunlaringizning urug'ini bering, uyingizda yegan qovunning sharbati hali og‘zimdan chiqmadi. ”. Bundan tashqari, vohada qovun urug'idan barak tayyorlashadi. Buning uchun qovun urug'lari yaxshilab yuviladi, quritiladi va Xovanochaga (Xorazmchi ildizi) sepiladi. Keyin uni elakdan o'tkazing va tuxum qo'shing, tuxum baraka [7].

Vohada azakdan qovun-tarvuzlar g'arq pishgan paytda (asad oyida – 23.07-23.08[8]) sayillarda barcha aholi qatnashadi va meva-sabzavotlarning eng yaxshi navlarini arzon narxda sotib oladi. Avloddan avlodga o'tib kelyotgan va xalq turmushiga singib ketgan “*Qovun sayli*”, “*Qovoq sayli*”, “*Xirmon to'yi*” kabi an'anaviy bayramlar zamirida tabiatni e'zozlash, mehnatni ulug'lash bo'lgani uchun ham u yangi zamon talabiga to'la javob bera olgan va sovet davrida ham yo'qolib ketmagan. Mustaqillikdan keyin bu kabi an'anaviy bayramlar kata tantana bilan o'tkaziladigan bo'ldi [9].

Qovun saylining o'tkazilish usullari ham boshqa hosil bayramlarinikiga o'xshaydi. Unda ham qovun-tarvuzlarning eng yaxshi navlari namoyish etilib, ko'rgazmali tanlovlar, ko'riklar o'tkaziladi. Eng yaxshi qovun navlarini yetishtirgan mirishkorlar maxsus mukofotlar bilan taqdirlanadi. Qovun saylining diqqatga sazovor jihati unda qovun-tarvuz va poliz ekinlari mahsulotlari yarmarkalari tashkil etilishidir[10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi PQ-1271-son qarori bilan tasdiqlangan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida Madaniyat va istiroxat bog'larida «Gul sayli», «Uzum sayli», «Qovoq sayli», «Non sayli», «Palov sayli» hamda «Qovun sayli» singari sayllarni o'tkazish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda 322-son qarori e'lon qilingan. Dastur va qarorga asosan, 2014 yil, 9 avgustda, 2015 yil 13 avgustda Xiva shahrida “Gurvak – Xorazm qovunlari ramzi” nomli kata tadbir o'tkazilgan bo'lsa, 2017 va 2018 yillari 15 avgust kunlari, 2019 yil 11-13 avgust kunlari Xiva shahrining Ichan qala muzey qo'riqxonasi hududida “Qovun sayli” kata bayram sifatida o'tkazildi.

Xulosa. Xorazm qovunchiligini keng targib qilish va bu orqali mahalliy hamda xorijiy sayyohlar e'tiborini jalb etish maqsadida Xiva shahrida - Ichan Qal'a muzey

qo‘riqxonasida har yili ayni qovun pishig‘ida an‘anaviy tarzda qovun sayli tashkil qilinadi. Ushbu festival hududga sayyohlar oqimini oshirish, vohaning qadimiy polizchilik tajribasi, poliz va bog‘dorchilik mahsulotlarining noyob tur va navlarini keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

Madaniyat va turizm vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan tadbirdan maqsad Xorazning agroturizm salohiyati namoyishi, vohaning qadimiy polizchilik tajribasini, shirin-shakar qovun-tarvuzlar va bog‘dorchilik mahsulotlarining noyob tur va navlarini keng ommalashtirishdir. Unda respublikamizning barcha hududlaridan kelgan mirishkor dehqonlar o‘zlari yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ishtirok etadilar. Hozirda viloyatda qovunning 125 turi mavjud. “Gurvak-Xorazm qovunchiligining ramzi” - savdo ko‘rgazmasi ham tashkil qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каульбарс А.В. Низовья Аму Дарьёописанные по собственным исследованиям в 1873 г. Кн. IX. 1884. – С. 538.
2. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. - М., 1993. – Б. 62.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М., 1963. Ч. II. – С. 247.
4. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI-XIX асрлар). Тўлдирилган ва қайта ишланган нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 381.
5. Маткаримова С.М. Хоразм таомлари ва тановвул маданияти. – Бухоро, 2024. – Б. 165-168.
6. Матқурбонов Т., Саъдуллаев С., Сапарбоев З., Хўжаев Н. Хоразм воҳасида қовун ва тарвуз етиштириш. – Урганч, 2020. – Б. 23-36.
7. Маткаримова С.М. Хоразм таомлари ва тановвул маданияти. – Бухоро, 2024. – Б. 167.
8. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 37.
9. Маткаримова С.М. Хоразм таомлари ва тановвул маданияти. – Бухоро, 2024. – Б. 168.
10. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent, 2002. - B 104-105.

**O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING
MUSTAQILLIK YILLARIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ**

**TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL
EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF
INDEPENDENCE**

Qosimov Dilmurodjon A’zamjonovich

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
metodik xizmat ko‘rastish bo‘limi tarix fani metodisti

azamjonovich1989@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot 1991-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Maqolada mustaqillikdan keyin maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, islohotlar va ularning natijalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sohaning bugungi kundagi holati va rivojlanish istiqbollari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi sezilarli darajada rivojlangan bo‘lsa-da, hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Maqolada aniqlangan muammolarni bartaraf etish va sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Калит so‘zlar: O‘zbekiston, maktabgacha ta’lim, mustaqillik, rivojlanish tendensiyalari, islohotlar, muammolar, istiqbollar

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития системы дошкольного образования Узбекистана в годы независимости. Исследование охватывает период с 1991 по 2024 год. В статье рассматриваются изменения, реформы и их результаты в системе дошкольного образования после обретения независимости. Также анализируется современное состояние и перспективы развития отрасли. Согласно исследованию, несмотря на то, что система

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

дошкольного образования в Узбекистане значительно развита, все еще существуют проблемы, которые ждут своего решения. В статье даны рекомендации по устранению выявленных проблем и дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: Узбекистан, дошкольное образование, независимость, тенденции развития, реформы, проблемы, перспективы

Abstract. This article analyzes the development trends of the preschool education system in the years of independence of Uzbekistan. The study covers the period from 1991 to 2024. The article examines changes in the preschool education system after independence, reforms and their results. The current state and development prospects of the industry are also analyzed. According to the results of the study, although the preschool system has developed significantly in Uzbekistan, there are still problems waiting for a solution. The article provides recommendations for the elimination of identified problems and the further development of the industry.

Keywords: Uzbekistan, preschool education, independence, development trends, reforms, problems, prospects

KIRISH

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng O‘zbekistonda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi. Ta‘lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta‘lim bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi [2]. Shu bois, mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimining mustaqillik yillaridagi rivojlanish tendensiyalari o‘rganiladi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot uchun 1991-2024-yillar orasidagi davr tanlab olindi. Bu davr mustaqillikning dastlabki yillaridan to bugungi kungacha bo‘lgan vaqtni qamrab oladi. Tadqiqotda maktabgacha ta‘limga oid qonunlar, qarorlar, statistik ma‘lumotlar, ilmiy maqolalar va boshqa manbalar tahlil qilindi. Xususan, Xalq ta‘limi vazirligi, Maktabgacha ta‘lim vazirligi hamda Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanildi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

NATIJARLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqillikning dastlabki yillarida maktabgacha ta'lim muassasalari soni keskin kamaygan. 1990-yillar oxirida maktabgacha ta'lim qamrovi atigi 20 foizni tashkil etgan [3]. Biroq keyingi yillarda bu ko'rsatkich asta-sekin oshib bordi va 2022-yilga kelib 70 foizdan oshdi [4]. Xususan, 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan:

Maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga katta mablag'lar ajratildi;

- Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi, davlat-xususiy sheriklik asosida bog'chalar tashkil etish yo'lga qo'yildi;

- Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilar va boshqa xodimlarning maoshlarini oshirish va moddiy rag'batlantirish tizimi takomillashtirildi;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlov guruhlariga jalb qilish, 5-6 yoshli bolalarni bir yillik bepul tayyorlovdan o'tkazish tizimi joriy etildi [5].

Bularning barchasi maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish va sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng maktabgacha ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Dastlabki yillarda iqtisodiy qiyinchiliklar va boshqa sabablar tufayli bog'chalar soni qisqardi, moddiy-texnik baza yomonlashdi, maktabgacha ta'lim sifati pasaydi. Biroq keyingi davrlarda, ayniqsa 2010-yillardan boshlab maktabgacha ta'limga e'tibor kuchaydi. Davlat maktabgacha ta'limni ustuvor yo'nalish deb belgilab, bog'chalar qurilishi va ta'mirlanishiga katta mablag'lar ajratdi, tarbiyachilar maoshi va malakasini oshirish bo'yicha ishlar olib borildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida maktabgacha ta'lim qamrovi oshdi, bog'chalarning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi, tarbiyachilarning salohiyati yuksaldi.

Xususan, oxirgi 5 yilda maktabgacha ta'limga innovatsion yondashuvlar joriy etildi, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati rag'batlantirilib, sog'lom raqobat muhiti shakllandi. Maktabgacha ta'limni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, sohadagi muammolarni tizimli tahlil qilish va samarali yechimlarni ishlab chiqish maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi [5]. Bu o'z navbatida sohani yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir jihat - maktabgacha ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar zamon bilan hamnafas ravishda o'zgarib, yangilanib bormoqda. Ilgari bog'chani asosiy vazifasi bolani umumiy tarzda maktabga tayyorlash bo'lgan bo'lsa, bugun maktabgacha ta'lim oldiga bolaning har tomonlama - jismoniy, intellektual, axloqiy rivojlanishini ta'minlash, uning qobiliyat va iste'dodini aniqlash hamda ro'yobga chiqarish kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Zamonaviy bog'chalar bolaga ta'lim beribgina qolmay, tarbiya ham berishi, shu bilan birga parvarishlashi, qo'llab-quvvatlashi lozim. Bog'cha bolaning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, uning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismonan baquvvat bo'lib o'sishiga ham ko'maklashishi zarur [6].

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammo - maktabgacha ta'lim muassasalari yetishmasligi, ayniqsa chekka hududlarda ushbu muammo yaqqol seziladi. Bog'chalar bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha viloyatlararo katta farqlar mavjud. Ayrim joylarda ta'mirlash va rekonstruksiya muhtoj bog'chalar ko'p [7]. Bog'chalarga bolalarni qabul qilishda ham qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, navbatlar ko'paygan, ayniqsa yirik shaharlarda bu muammo keskin tus olgan [8].

Muammolardan yana biri - maktabgacha ta'lim sifatini yanada yaxshilash zarurati. Bog'chalarning moddiy-texnik bazasi, o'quv-metodik ta'minoti talab darajasida emas. Tarbiyachilar malakasi, ish haqining pastligi ham sifatga ta'sir qilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalari, multimediali o'quv qurollari yetarli emas [6]. Bundan tashqari, maktabgacha ta'limda bolaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, iste'dodini aniqlash va ro'yobga chiqarish bo'yicha ishlar talab darajasida emas.

Muammolardan yana biri bu - maktabgacha yoshdagi bolalarning bir qismini bog'chaga qamrab olishning imkoni yo'qligi. Ayniqsa kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, nogironligi bor ota-onalar farzandlarini bog'chaga bera olmayapti. Maxsus ehtiyojli bolalarni maktabgacha ta'limga jalb qilish ham qoniqarli emas. Ular uchun inklyuziv muhit yaratish, zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [9].

Yuqoridagi muammolarning barchasi maktabgacha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, sohaning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois, yaqin va o'rta muddatli istiqbolda ushbu muammolarni hal etish maqsadga muvofiq. Xususan:

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

davlat byudjeti mablag'lari hisobidan yangi bog'chalar qurish, mavjudlarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish;

maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv qurollari, multimediali vositalar bilan ta'minlash;

maktabgacha ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish, tarbiyachilar ish haqini munosib darajaga yetkazish;

maktabgacha ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash, maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash;

maktabgacha ta'limga davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini keng joriy etish, nodavlat maktabgacha ta'lim faoliyatini rag'batlantirish kabi yechimlar maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois so'nggi yillarda ushbu sohaga katta e'tibor qaratildi, islohotlar amalga oshirildi, soha rivojlanishiga kompleks yondashuv belgilandi. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'limni rivojlantirish strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 2030-yilgacha mo'ljallangan yangi konsepsiya ishlab chiqildi. Hukumat tomonidan maktabgacha ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan qo'shimcha mablag'lar ajratilishi kutilmoqda. Bular o'z navbatida sohaning yanada takomillashuviga, bolalar uchun maktabgacha ta'limda yangi imkoniyatlar yaratilishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sezilarli rivojlandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu borada ijobiy o'zgarishlar tezlashdi. Davlat maktabgacha ta'limni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, katta mablag'lar ajratmoqda. Nodavlat sektor ham jadal rivojlanib, raqobat muhitini shakllantirmoqda. Natijada yangi bog'chalar qurilmoqda, mavjudlari ta'mirlanib, zamonaviy o'quv qurollari bilan jihozlanmoqda. Tarbiyachilar malakasi oshirilmoqda.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'limda hali ham yechimini kutayotgan muammolar bor. Birinchidan, maktabgacha ta'lim qamrovi hali ham yetarli emas, ayniqsa qishloq joylarida bu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda. Sabablaridan biri aholining maktabgacha ta'limga bo'lgan talabi va ehtiyojining pastligi, ota-onalarning farzandlarini bog'chaga berish istagi yo'qligi hisoblanadi. Ikkinchidan, maktabgacha ta'lim sifati yanada oshirilishi lozim. Bog'chalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar yetarlicha joriy etilmagan. Tarbiyachilarning

malakasi hali ham talab darajasida emas. Muammolardan yana biri maktabgacha ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash masalasidir. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun sharoitlar yetarli emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev, Sh. M. (2017). Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston.
2. UNICEF (2019). A world ready to learn: Prioritizing quality early childhood education. New York: UNICEF.
3. Stat.uz. (2022). Maktabgacha ta'lim. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. [online]
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son, <https://lex.uz/docs/-4327235>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2018). Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3261-son, 30.09.2018.
6. Abdullayeva, O. (2020). Maktabgacha ta'lim: muammolar va istiqbollar. Pedagogika jurnali, 1(3), 100-108.
7. Ikromova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie, 11, 51-58.
8. Shomaxmudova, L. (2019). Maxsus ehtiyojli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida qo‘llab-quvvatlash masalalari. Pedagogik mahorat, 5, 101-105.
9. Mirziyoev, Sh. (2022). Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.

**Research Science and
Innovation House**

Shoira Sham ijodida aruz vazning tutgan o‘rni

Urganch davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs
talabasi Bobonazarova Gulzoda

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shoira Shams ijodida aruz vazning tutgan o‘rniga alohida e‘tibor qaratib o‘tdik va ijodida aruz vazning asosiy 3 bahrlari haqida ham batafsil ma‘lumot berilib, ijodkor lirikasidan misollar keltirish orqali bayt mazmuni izohlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bahr, aruz, ramal, rajaz, hazaj, g‘azal, solim, mahzuf, musaddas, musamman.

Aruz tizimning eng kichik bo‘lagi sokin, ya‘ni mustaqil undosh yoki cho‘ziq unli, shuningdek, mutaharrak, ya‘ni harakatli, o‘zidan keyin qisqa unlilar keluvchi undosh harflardir. Ularning turlicha birikuvidan sabab, vatad, fosila deb ataluvchi yirikroq bo‘laklar, ularning ham birikuvidan esa aruz asosi bo‘lgan 8 ta asosiy asl bo‘laklar- ruknlar yuzaga kelgan. Faulun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf‘ilun, maf‘ulotu, mutafoilun va mafoilatun deb ataluvchi ushbu asl ruknlarning aynan yoki turlicha birikib takrorlanishidan aruz tizimining asosiy o‘lchovlari- bahrlar hosil qilinadi.

Aruz she‘riyatga VIII asrdan tatbiq etilgan mazkur o‘lchov tizimi IX asr boshlaridan fors-tojik adabiyotida ham qo‘llanila boshlandi hamda Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, keyinroq Umar Hayyom, Sa‘diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodida mustahkam o‘rin egalladi.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi va izchil rivojlanib borishida Alisher Navoiyning ilk turkiy tilda yaratilgan “Mezon-ul avzon” (“Vaznlar o‘lchovi” asari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Biz esa quyida Shoira Qalandarova ijodida rajaz bahriga misollar keltirib, ma‘nosini izohlab o‘tdik:

Ramal bahrida 2- bo‘g‘in ochiq bo‘lib qolgan bo‘g‘inlari yopiq hisoblanadi.
Masalan,

Manda rohatdin nishon yo‘q, sanda shavqatdin nishon,

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

Shu sababdan/ ko‘zima nur/lig‘ jahonim/ yo‘q maning.

- V - - - V - - - V - - - V -

[“Javrikim jondin o‘tar” 77-bet]

Ushbu g‘azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, bayt mazmunini izohlaydigan bo‘lsak, menda rohatdan nishon ham yo‘q senda esa shavqatdan nishon ham yo‘q. Shu sababli ham ko‘zimda nurli jahonim yo‘q degan ma’no anglashiladi.

Furqating ozori tinmay tirnayur bir qush kabi,

Nimta qalbim/ qon, hamon do/rul-omonim/ yo‘q maning.

- V - - - V - - - V - - - V -

Ushbu g‘azal ham ramalli musammani mahzuf vaznida yaratilgan bo‘lib, bu baytda bir qancha badiiy san‘atlardan ham mohirona foydalanilgan. Masalan, qush kabi birikmasi natijasida tashbeh san‘ati qo‘llanilgan. Baytni tahlil qiladigan bo‘lsak, ayriliq azobi tinmay xuddiki bir qush kabi qalbimni tirnaydi va qalbim parcha-parcha bo‘lib, hali-hamon dilim qon va tinch-osuda dorilomon kunlarim haligacha yo‘q degan ma’no kelib chiqadi.

Keyingi keng tarqalgan bahrlardan yana biri hazaj hisoblanib, bu bahr 1- bo‘g‘ini ochiq bo‘lsa bu bahrga to‘g‘ri keladi. Biz quyida Shoira Shams ijodidan bir bayt g‘azalni misol sifatida keltirib o‘tdik va ma’nosini izohlab o‘tdik. Masalan:

Jamoling oldida bu kun ko‘zim yoshi besababdur,

Ishq bulog‘i ko‘z ochganda, yorilsa tosh, ne ajabdur

[“Javrikim jondin o‘tar” 79-bet]

Ushbu g‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo‘lib, unda ham bir qancha badiiy san‘atlardan unumli foydalanilgan. Shulardan mubolag‘a san‘ati hisoblanib, bunda biror narsa yoki voqea bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Mubolag‘a san‘ati ishq bulog‘i ko‘z ochganda birikmasi natijasida yuzaga keltirilgan. Chunki ishqning bulog‘i bo‘lmaydi va buloqning ham ko‘zi ham bo‘lmaydi. Shu sababli ham mubolag‘a san‘ati yuzaga keltirilgan.

Keyingi keng tarqalgan bahrlardan yana biri rajaz hisoblanib, bunda 3- bo‘g‘ini ochiq bo‘lib, qolganlari yopiq bog‘in bo‘lib keladi. Biz esa quyida Shoira Qalandarovaning rajaz bahrida yozilgan g‘azalini misol sifatida keltirib, uni bir qadar tahlilga tortishga harakat qilib ko‘rdik:

Qir bag‘rida maskaning bor lolaqizg‘aldoq,

Poying o‘pib eridi qor. lolaqizg‘aldoq. [“Javrikim jondin o‘tar” 83-bet]

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Ushbu g‘azal rajazi musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, bu baytda bir qancha she‘riy san‘atlar qo‘llanilgan. Masalan, bor va qor so‘zlari vositasida tarse san‘ati yuzaga keltirilgan. Bu baytni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, qirning bag‘rida lolaqizg‘aldoqli bir maskan bor va mana shu lolaqizg‘aldoq poyini o‘pib qor ham eridi degan ma‘no anglashiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak aruz mumtoz poetikasi Alisher Navoiylar davrida yuksak cho‘qqiga erishib, rivojlanib kelgan bo‘lishiga qaramasdan bugungi kunda ham bu vazn an‘naviy ravishda bugungi kunda ham aruz vaznida ko‘plab g‘azallar yozilib kelinmoqda. Shunday an‘anani davom qilib kelayotgan ijodkorlardan biri Shoira Shamsdir. Biz esa yuqorida 3 ta asosiy bahrlar haqida batafsil to‘xtalib o‘tdik va misollar orqali baytda qo‘llangan she‘riy sn‘atlarni topib, izohlab o‘tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoira Shams “Javrikim jondin o‘tar”, “Quvonchbek-Mashhura” MCHJ nashriyoti Urganch-2018-yil
2. A. Hojiahmedov “Mumtoz badiiyat malohati”, “Sharq” nashriyoti-1999
3. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” Toshkent-2002

Research Science and
Innovation House

**KATTA BO‘RIGUL (VINCA MAJOR L.) VA KICHIK BO‘RIGUL
(VINCA MINOR L.) O‘SIMLIGINING O‘SISHI VA KO‘PAYISHI**

Pardayeva Shahnoza Turg‘un qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Amanova Mavluda Mustafakulovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti “Dorivor o‘simliklar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Vinca major va Vinca minor, mashhur manzarali o'simliklar, zich porloq doimiy yashil barglari va nozik binafsha-ko'k gullari bilan mashhur. Rangi va ko'rinishi bilan e'tiborni tortadigan bu gulni uy sharoitida o'stirishning bir qancha usullari mavjud.

Kalit so'zlar: *Vinca major*, *Vinca minor*, yarimbuta, epidermis, barg mezofili.

Vinca major (fors binafsha) - Apocynaceae oilasiga mansub o'simlik. Odatda markaziy va janubiy Yevropa, Portugaliya va Fransiya, Niderlandiya va Boltiqbo'yi davlatlari, sharqda Kavkaz, Turkiya va janubi-g'arbiy Osiyoda o'sadi.. Bundan tashqari Shimoliy Afrikada ham o'sadigan bu o'simlik dorivor maqsadlarda ishlatiladi. Ushbu o'simlik turi *Vinca rosea* ning kichik turi hisoblanadi. Hozirda *Catharantus roseus* sifatida ham tanilgan *Vinca rosea* o'simligidan 100 dan ortiq terpen indol alkaloidlari ishlab chiqariladi. Ular Vinka alkaloidlari deb ataladi. Eng muhim vinka alkaloidlari saratonga qarshi ta'sirga ega bo'lgan vinkristin va vinblastin, antihipertenziv ta'sirga ega ajmalitsin va tinchlantiruvchi ta'sirga ega serpengindir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Vinca minor — bu yerga tarqalib o‘sovchi yarimbuta, katta koloniyalarni hosil qiladi. Balandligi 40 santimetr gacha yetadi. [Barglari doim yashil](#), qarama-qarshi, uzunligi 2–4.5 santimetr kengligi 1–2.5 santimetr, yaltiroq to‘q yashil rangda.

Vinca minor doim yashil ildizpoyali har yili gullab meva beradigan yarim buta o‘simlik hisoblanadi. O‘simlik ikki turdagi vegetativ va generativ poya hosil qiladi. Bu poyalarni bo‘g‘im oraliqlariga qarab bir-biridan ajratiladi. Vegetativ poyalarining bo‘g‘im oraliqlari uzun bo‘lib gorizontal yo‘nalishda o‘sadi, shox hosil qiladi, bo‘yi 25–50 sm. Barglari oddiy tuxumsimon, o‘tkir uchli, yaltiroq, qalin ustki tomoni yashil, ostki qismi esa yashilkulrang uzunligi 2,5–5,3 sm, eni 1,3–2,8 sm, qisqa bandli, poyada qarama-qarshi ko‘rinishda joylashgan. Barglari qalin kutikulka bilan qoplangan.

Epidermis bir qavatli. Barg og‘izchalari bargning ostki tomonida joylashgan. Barg tomirlari asosan bargning ostki tomonida bo‘rtib chiqqan. Barg mezofili tik o‘sovchi bo‘rigulga nisbatan yuqaroq bo‘ladi. Bargning ustki tomonidan ko‘rinishi yaltiroqligi esa yuqori turadi. Bargning ostki tomonida ko‘p sonli og‘izchalar uchraydi.



Barg mezofili dorsavental tipida bo‘lib 2–3 qatorli ustunsimon va 6–8 qatorli gavak to‘qima hujayralaridan iborat. Bo‘rigul turkumiga kiruvchi bu ikki turda barg epidermis hujayralari qobiqlarini kuchli egri-bugriligi qalin kutikula qavati mavjudligi, bargning ust qoplovchi to‘qima hujayralarida barg og‘izchalarining uchramasligi ularni nam tanqisligiga moslashish xususiyati yaxshi rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

barg hujayralarining osmatik bosimi yuqoriligi ham ularni nam tanqisligiga moslashuvida katta rol o'ynaydi. Tadqiqot jarayonida anatomik, fiziologik, morfologik usullardan foydalaniladi. Bargning anatomik, morfologik belgilari anatoma-morfologik usuldan foydalanib o'rganiladi.

Gullari barg qo'ltig'ida yolg'iz joylashgan, asosan erta bahordan yozning o'rtalarigacha hosil bo'ladi. Ba'zi turlari kuzda gullaydi. Gullari binafsharangda (ba'zi madaniy seleksiyalarda och binafsha yoki oq), diametri 2–3 santimetr. Mevasining uzunligi 2.5 santimetr.

Tur odatda o'zining doimiy yashil barglari, bahor va yozda ochiladigan gullari, zich bo'lib o'sish xususiyati sababli mo'tadil iqlimli bog'larda tuproq qoplami sifatida o'stiriladi.



Turning bir nechta zararkunandalari va kasalliklari mavjud. Shimoliy Amerikaning ba'zi qismlarida keng tarqalgan va invaziv tur sifatida tasniflangan. Ekilganidan so'ng, uni yo'q qilish qiyin, chunki uning mumsimon barglariga gerbitsidlar ta'sir qilmaydi. Biroq, glifosat o'simlikni 2-3 hafta ichida osongina quritadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Скворцов В.Э. Растения Средней полосы России: Атлас-определитель. – М.: 5 за знания, 2008. – 336с.
2. Stearn WT. Taksonomy and nomenclature of Vinca . In W. Taylor (ed.), The Vinca alkaloids. Mariel Dekker Inc, NY, 1973.
3. Арнаутова 2004 - Арнаутова Ю.Е. Колдуны и святые: антропология болезни в средние века. СПб., 2004.
4. Schittler. Introduction to Vinca alkaloids. In W. Taylor (ed.), The Vinca alkaloids. Mariel Dekker Inc. NY, 1973
5. O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligi va biologiya fanlari doktori K.C.Safarovning ilmiy va pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan "O'simliklar introduksiyasi;yutuqlari va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari;Toshkent,2018-yil 285b.
6. Levêque D, Jehl F. Molecular pharmacokinetics of catharanthus (vinca) alkaloids. J Clin Pharmacol. 2007; 47: 579-588.

Research Science and
Innovation House

TARJIMA LUG‘ATLAR UCHUN KORPUS O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Latipova Gulasal Bahrom qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada korpusga asoslangan tarjima birligini aniqlash ikki tomonlama bo‘lishi lozimligi, ayrim gaplarni ajratish va ularni struktur birliklarga ajratish to‘g‘ri emasligi misollar bilan keltirilgan, ayrim gaplarning butun yaxlitligi shu gap ustiga qurilgan so‘z turkumlarining ketma-ketligi tashkil qiladi. Ayrim gaplarda u yoki bu so‘z omonimiyani hosil qiladi. Bu holatda har bir so‘z so‘z segmentlash jarayonidan o‘tkazilishi hamda statistik ko‘rsatkichiga qarab tarjima juftligi muqobillari aniqlanishi kerakligi izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarjima lug‘at, korpus, parallel korpus, leksikografiya, avtomatlashtirish, ta’limiy lug‘atlar, matn.

Аннотация: В данной статье представлена корпусная единица перевода. Определение должно быть двусторонним, некорректно выделять некоторые предложения и делить их на структурные единицы. В некоторых предложениях то или иное слово создает омонимию. В этом случае каждое слово проходит процесс сегментации слов и статистическую обработку. Поясняется, что альтернативы пары перевода должны определяться в зависимости от показателя.

Ключевые слова: переводной словарь, корпус, параллельный корпус, лексикография, автоматизация, учебные словари, текст.

Abstract: This article presents the corpus translation unit. The definition must be two-sided it is incorrect to single out some sentences and divide them into structural units. In some sentences, one word or another creates homonymy. In this case, each word goes through a word segmentation process and statistical processing. It is clarified that translation pair alternatives must be determined depending on the indicator.

Key words: Translation dictionary, corpus, parallel corpus, lexicography, automation, educational dictionaries, text.

Tarjima lug‘atlar masalasi so‘nggi o‘n yillikda parallel korpusga asoslangan tarjimashunoslik asoslarining yaratilishi bilan bog‘liq.

Mona Baker ^[1,1] o‘zining tadqiqotlarida asliyatdagi va uning tarjima qilingan matnlarning parallel korpusini yaratish korpusga asoslangan tarjima metodologiyasi rivojlantirish mumkin, degan dastlabki mulohazalarini bildirib o‘tadi. O‘tgan asrning 90-yillarida parallel, ko‘p tilli va qiyosiy korpuslarning nazariy masalalariga bag‘ishlangan ilmiy yondashuvlar paydo bo‘la boshladi^[2,2]. Olimning 1996-yilda shu mavzuga tegishli maqolasi korpusga asoslangan tarjimashunoslik, corpus based translation studies sohasining fan olamiga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Yevropa tilshunosligi, xususan, leksikografiyasi rivojiga korpus tahlili asosida amalga oshirilgan ishlar sezilarli ravishda hissa qo‘shdi. Bunga ingliz tili Britaniya milliy korpusi va Brown korpusi orqali katta hajmli ma’lumotlardan olingan matn fragmentlariga asoslangan ta’limiy lug‘atlarni alohida qayd etish o‘rinli. Oxford, Cambridge, Longman kabi tarjima lug‘atlarning ommaviylashuviga omil bo‘lgan sabablardan biri ham lug‘atda beriladigan maqolalarning grammatik va kontekstologik u yoki bu so‘z haqidagi tushunchani kengroq yoritishga qaratilganligi bo‘ldi.

Manbalarga ko‘ra ^[3,2], 1990 yilga kelib umumiy 16 ga yaqin korpus mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yevropa tillari uchun 365 mln. So‘zdan iborat katta hajmli lingvistik resurs yaratilgan edi. Bu esa katta hajmli lingvistik lug‘atlar yaratish imkonini yaratdi.

Manchester universitetida ilk bor korpusga asoslangan tarjimashunoslik sohasi fan sifatida o‘qitila boshlangan. Ingliz tilining ko‘p manbali hamda monolingval korpus asosida 1996-yillarda ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Tarjimaning korpusga asoslangan yondashuvlari chog‘ishtirma tahlil, tilning sohada qo‘llanishi, xorijiy tilni o‘qitish, terminologiya va kompyuter lingvistikasi uchun mustahkam aloqa o‘rnatdi.^[4,4]

J. Munday ^[1,5] sistem funksional tilshunoslik, korpus lingvistikasi, madaniyatshunoslik sohalarini (1997) parallel korpusda tarjimoni tahlil qilishning nazariy asoslarini asoslashga harakat qilgan.

Unga ko‘ra, Gabriel Garsiya Marksning ispan tilidagi hikoyalari asosida amalga oshirilgan. Dunyo tillari doirasida shotland, nemis tillarida yaratilgan badiiy asarlar asosida yaratilgan parallel korpuslarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Skot o‘zining ilmiy kuzatishlarida asliyatdagi va tarjima qilingan matnlarda ishtirok etgan inkor formasining uslubiy jihatlarini parallel korpus asosida tahlilga tortgan.

Blum-Kulka and Levenston (1983), Klaudy (1996), Shlesinger (1989, 1991, 1995), Toury (1985, 1991) va Vanderauwera (1985) kabi olimlar tomonidan parallel korpus asosidagi matnlarni kognitiv, lingvomadaniy, sotsiolingvistik jihatdan tadqiq qilishdagi o‘rni haqidagi mulohazalari korpusga asoslangan tarjimashunoslikni yanada boyitdi ^[2,6].

Shlezinger va K. Malmker parallel korpus dizaynini yaratishga doir fikrlarini bildirishgan ^[3,7]. Unga ko‘ra tarjima ekvivalentlarini tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilishda qulay va foydali bo‘lishi uchun bir asliyatdagi matn uchun bir nechta tarjima parallel korpuslarini yaratish tarjima nazariyasi va amaliyot uchun foydali bo‘lishini ta’kidlaydi.

Gavioli va Zanettin ^[4,8] tomonidan talabalar uchun tarjima amaliyotida italyan-ingliz chog‘ishtirma kursida tibbiyot sohasiga doir matnlar bilan ishlashda parallel korpusdan foydalanishga doir tadqiqotlar olib borishgan. Unga ko‘ra o‘quvchilarning soha doirasidagi bilimni aniqlash, tibbiyot sohasiga tegishli ilmiy matnlar strukturasi doir ilmiy bilimga ega bo‘lish, sohaviy terminlar bo‘yicha lingvistik termin haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kabi masalalarni korpus orqali hal qilish imkoniyatlari o‘rganilgan. Ayniqsa, KWIC, ya‘ni konkordans orqali so‘zlarning vertikal shaklda berilgan ma‘lumotlar orqali lingvistik bilimlarni olishda korpusning instrumenti sifatidagi ahamiyati alohida qayd etilgan.

J. Vinay tarjima birligi sifatida alohida tarjima qilinmaydigan yagona tarjima birligi sifatidagi birliklar nazarda tutilishini e‘tirof etadi ^[5,9]. Tarjima birliklari bu tarjima qilinayotgan tilning modeli asosida uning qoliplariga mos ravishda tarjima muqobili tanlanadi.

Biroq tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) tarjima birligi biroz kengroq tushuniladi. Masalan, google translatorni misol sifatida tahlilga tortsak uning leksikografik nimadan tashkil topgani va nima uchun asliyadagi tarjima birliklar soni tarjima qilinayotgan tarjima tilga aynan mos kelmasligi biz uchun qiziq. Bu borada L. Bowker ^[1,10] tarjima birligi sifatida quyidagi: “tarjimon xotirasida mos tarjima birligi sifatida saqlanuvchi asliyadagi matn segmenti”ga nisbatan ta‘rif beradi.

Tijorat tarjima tizimlarida ikki til o‘rtasidagi gap deb aniqlanuvchi tarjima muqobillarini tarjima birligi sifatida tushunish qabul qilingan.

Tarjima juftliklarining muqobillari parallel korpusda saqlanadi. Gap darajasidagi tarjima muqobillari tarjima modellari uchun degment birlik sifatida aniqlanadi. Muqobillik so‘z darajasida, fraza darajasida yoki gap darajasida bo‘lishi mumkin. Bu borada J. Veronius ^[2,11] asliyadagi matn va tarjima matn o‘rtasidagi muqobillik birma-

bir bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. So‘z o‘rtasidagi tarjima juftliklari muqobillarini aniqlash murakkab jarayon sanaladi.

Korpusga asoslangna tarjima jarayonida tarjima birliklarini aniqlash borasidagi fikrlar xilma-xil. Korpus lingvistlari tadqiqot olib borgani kabi matn mazmuni birligi masalasi tarjimadagi leksik birliklar darajasida aniqlashning ilmiy asoslarini M. Beyker [3,12] va K. Deyrell [4,13] ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi tushunchalar Daniel va Sinkler ishlarida ham o‘z ifodasini topgan. Ularning nuqati nazaricha, monolingval tahlil asosida amalga oshiriladigan tarjima tarjimaning umumiy mazmunini aks ettirish kerak. Bu asosan tarjima qilinayotgan matnda o‘z ifodasini topadi.

Tarjima jarayoni parallel korpusdagi asliyatdagi va tarjima qilinayotgan matndagi muqobil birliklari qanday aniqlanadi, tarjima mazuni va alohida birliklarni tahlil qilish masalasi juda ko‘p olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Ayrimlarida tarjima birligi masalasi tahlil birligi bilan (NLPda) tenglashtirilsa, ba’zilarida kognitiv jihatdan to‘g‘ri emasligi tarjima va asliyatdagi matnlar asosan lug‘at birliklarini birlamchi ekanligini qayd etishadi.

Bizningcha, korpusga asoslangan tarjima birligini aniqlash ikki tomonlama bo‘lishi lozim. Birinchidan ayrim gaplarni ajratish va ularni struktur birliklarga ajratish to‘g‘ri emas, chunki ayrim gaplarning butun yaxlitligi shu gap ustiga qurilgan so‘z turkumlarining ketma-ketligi tashkil qiladi. Ayrim gaplarda u yoki bu so‘z omonimiyani hosil qiladi. Bu holatda har bir so‘z so‘z segmentlash jarayonidan o‘tkazilishi hamda statistik ko‘rsatkichiga qarab tarjima juftligi muqobillari aniqlanishi lozim.

Korpus bilan tarjima yo‘nalishlarini Kaibao Hu [1,14] uch yo‘nalishga ajratadi:

1. Tarjima xususiyatlarini korpus asosida tahlil qilish. Bu kabi yondashuv chog‘ishtirma tilshunoslikda u yoki bu tilning grammatik kategoriyalari va leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llanadi. Bu yondashuv to‘rt

aniqlashga qaratilgan bo‘ladi: asliyatdagi qaysi leksik birlikning muqobil variantida past chastotaga ega bo‘lish holati; yuqori chastotali so‘zlar ro‘yxati, umumiy so‘zlarning eng ko‘p vodelanishi hamda eng ko‘p chastotali so‘zlarda eng kam variantivlik hodisasi. Masalan, Maia and Ebeling SVO, ya’ni ega+kesim+to‘ldiruvchi strukturali gaplarning xususiyatlarini ingliz-portugal hamda ingliz-norveg tillari bo‘yicha tadqiq etganlar. Bu kabi yondashuv chog‘ishtirma tilshunoslik uchun o‘rganish obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

2. Tarjima me‘yorlarini o‘rganishda korpusga asoslangan yondashuv. Bunda korpus asosida asliyatda ingliz tili bilan tarjima qilingan ingliz tilingan tarjima me‘yorlari va ularning Grammatik me‘yorlari tahlil qilinadi.
3. Tarjimon jarayoni uchun korpusga asoslangan tahlil. Unda tarjima uchun parallel korpusga asoslangan tarjima instrumentariylaridan foydalanib, tarjima xotirasiga, ya’ni Translation memoriga ma’lumotlar yig‘iladi. Shu orqali lug‘at tayyorlanadi va keyingi jarayonlar uchun tarjima platformasida o‘zi tomonidan kiritilgan, tahrirlangna va hattoki tarjima qilingan matn segmetlari asosida tarjima sifati va tezligini oshirishga xizmat qiladi: wordsmith yoki, WordFast, Dejavu kabi. Ayrim yevropa tillari uchun tarjima muqobillarini aniqlash funksiyasi ham kiritilgan bo‘lib tarjima birliklarini muqobillarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi ParaConc kabi.

Korpusga asoslangan tarjima lug‘atlarni yaratishda mana shu uchinchi yondashuv qo‘l keladi. Tarjima lug‘atlar uchun ularning tarjima birliklarini aniqlash juda muhim sanaladi. Muqobil juftliklar asliyat va tarjima matnlar o‘rtasidagi ekvivalentlarini yoki tarjima munosabatlarini belgilshda muhim sanaladi va ularning darajasi so‘z, gap, paragraf va hatto gapga teng kelishi mumkin. Aukland universitetida Mikail Barlov tomonidan yaratilgan ParaConc dasturiy ilovasi 80% aniqlikda tarjima

muqobillarni aniqlashga yordam beradi. Shunday bo‘lsa-da so‘zlarning ketma-ketlikda muqobillarning aniqlashning imkoniyati yo‘q. Buni inson resursi orqali yoki sun‘iy intellect asosida katta hajmdagi parallel korpuslar yordamida amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, M. 1993. Corpus linguistics and translation studies: Implications and applications. In Text and technology: In honour of John Sinclair, ed. M. Baker, G. Francis and E. Tognini-Bonelli, 233-250, Amsterdam: John Benjamins
2. Laviosa S. Corpus-based translation studies: Where does it come from? Where is it going? // Unisa Press Language Matters 35 (1) 2004 pp. 6-27
3. Unisa Press Language Matters 35 (1) 2004 pp. 6-27
4. Munday J. Corpus-Based Translation Studies Research and Applications (Edited by Alet Kruger, Kim Wallmach and Jeremy Continuum Advances in Translation Studies— P.19
5. Jeremy Continuum Advances in Translation Studies - P. 16.
